7.Endi istalgan joyga kelib sichqoncha tugmasini bosgan holda darcha oching, ketma-ket o’zingizga kerakli histogramma ko’rinishini tanlang va “Dalee” tugmasini bosing. Keyin esa “Gotovo” tugmasini bosing va siz darchada histogrammani ko’rasiz.

8.Hosil qilingan histogrammani kattalashtirish uchun, shu histogramma ustiga kelib sichqonchani bir marta bosing. Uning ramkasidagi belgilarga kelib sichqoncha tugmasini bosib kerakli joyga kelib qo’yib yuboring.

9.Histogrammani tahrirlash uchun histogramma ustiga kelib, oldin bir marta va keyin ikki marta bosing.

10.Bajargan ishingizni faylga saqlab qo’ying.

## Amaliy mashg'ulot № 8.

**Mavzu:** Ma'lumotlar bazalari va katta xajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari.

**Ishning maqsadi:** Ma'lumotlar bazasini yaratish asoslarini o'rghanish, MS Accessda jadval modifikasiyalari va berilganlarni tahrirlash, hamda berilganlarni qayta ishlash usullari.

### **Topshiriqlar:**

1. MS Access dasturini ishga tushirib ko'rsating.
2. MS Accessda o'z guruhingiz haqida ma'lumotlar bazasi yarating.
3. MS Access dasturida jadvallar hosil qilib bering.
4. MS Access dasturida so'rovlар hosil qilib bering.
5. MS Access dasturida formalar hosil qilib bering.
6. MS Access dasturida hisobotlar tayyorlang.

### **Laboratoriya ish bo'yicha ko'rsatma:**

Microsoft Office tarkibidagi Microsoft Access pictogrammasi ustida «sichqoncha» chap tugmasini 2 marta bossak, ekranda Access darchasi paydo bo'ladi (1-rasm):

Darchaning birinchi satrida **MBBT** nomi **Microsoft Access** deb ifodalangan, 2-nchi satrda esa tavsiyanoma punktlari:

#### **Файл Правка Вид Вставка Формат Записи Сервис Окно ?**

Uchinchi satrida **Standart** paneli pictogrammalar joylashgan. Darchaning keng qismi ishchi maydon hisoblanadi. Ishchi maydonda yuqoridagi muloqot darchasi hosil bo'ladi. Bu darcha yordamida biz yangi **MBni** tashkil qilishimiz yoki mavjud **MBni** ochib ular ustida ishlashimiz mumkin.

**Access 9x** (umumlashgan lahjasi) darchasi **6 ta** obyektdan iborat bo'lib, asosan shular bilan ish yuritiladi. Bular: **Таблица** (jadval), **Запрос** (so'rov), **Форма** (forma), **Отчет** (hisobot), **Макрос** (makro buyruq) va **Модул**.

**Jadval** - MBning ma'lumotlar saqlaydigan asosiy obyekti;

**So'rov** - MB dari ma'lumotlarni tartiblash, biror kerakli ma'lumotni qidirib topish kabi vazifalarni bajaradi.

**Forma** – MBga yangi ma'lumotlar kiritadi, yoki joriy **MB**dagи ma'lumotlar ustida foydalanuvchi uchun qulay bo'lgan turli-tuman shakldagi formalar yaratadi. Demak, **forma** – ekran obyekti bo'lib, elektron blank tarzida ifodalanib, unda ma'lumotlar kiritiladigan maydon mavjud va shu maydonlarga kerakli ma'lumotlar joylashtiriladi va jadval shu tariqa hosil qilinadi.

**Hisobot** - MB tarkibidagi ma'lumotlardan keraklisini printerga chiqaruvchi qog'ozdagi asosiy hujjat.

**Modul** - **Visual Basic** dasturlash muhitida yozilgan dastur bo'lib, nostandart operatsiyalarni foydalanuvchi tomonidan bajarilishiga imkon yaratadi,


**Makrobuyruq** - bir qator buyruqlar majmui asosida hosil bo'lgan makrobuyruq bo'lib, foydalanuvchi tomonidan jadval tuzishda juda qiyin hal qilinadigan jarayonlarni yechadi.

### 1. MS Access dasturini ishga tushirish.

Asosiy menu orqali [Пуск]→[Программы]→[Microsoft Access] buyruqlar ketma – ketligi amalga oshiriladi. Agar mavjud bo'lsa, ish stolidagi dastur yorlig'iqa murojaat qilish ham mumkin. Natijada MS Access dasturi hosil bo'ladi.

### 2. MS Access dasturida jadval hosil qilish.

MS Access da jadval hosil qilish uchun ushbu dasturga kirib Таблицы bo'limini tanlaymiz. Shundan so'ng kiritiladigan ustunlarning tipini aniqlaymiz(1-rasm). Ustunlarga mos tiplarni belgilaganimizdan keyin ularni kiritamiz.



1-rasm. Ustunlarni tipi bo'yicha kiritish


Hosil qilingan jadvalga nom beramiz va unda ma'lumotlarni kiritamiz. (2-rasm).

№	FIO	Tuzilingan sanasi	Passport mahalasi
1	Нафисатов Bekzod	12.11.1980 CM 1252646	Qarshi shahar Dg machti ko'cha 6-ju
2	Сабирзода Bekzod	05.02.1989 CM 1490339	Qarshi shahar Beklar mahalasi
3	Тошев Тамерлан	08.07.1988 CM 1112248	Qarshi shahar Ka'chabog' ko'cha 17-ju
4	Равон Азизjon	19.11.1999 CM 2692069	Qarshi shahar Beklar mahalasi
5	Оргона Dilor'z	25.05.1990 CM 0124565	Qarshi shahar Kat mahalasi

2-rasm. MS Access da jadvalga ma'lumotlar kiritish jarayoni


### 3. Microsoft Access da so'rovlar hosil qilish.

Dastlab Таблицы bo'limidan Запросы bo'limiga o'tamiz (3-rasm).



3-rasm. Запросы bo‘limiga o‘tish.

Undan so‘ng so‘rovning turlarini bilgan holda so‘rov tipini qilamiz. So‘rovlар odatda jadvallar orqali yoki jadval va so‘ovlar orqali amalga oshiriladi. Bizda, 4-rasmда huquq1 jadvali asosida so‘rov qilinmoqda



4-rasm. So‘rovni tashkil qilish


Natijada bizga 5-rasm ko‘rinishidagi so‘rov paydo bo‘ladi:

№	FIO	Manzili
1	Haqnazarov Behzod	Qarshi shahar Oq machit ko`cha 5 uy
2	Sattorzoda Behruza	Qarshi shahar Beklar mahallasi
3	Toshev Tilovmurod	Qarshi shahar Ko`chabog ko`cha 17 uy
4	Rasulov A'zamjon	Qarshi shahar Beklar mahallasi
5	Oripova Dilafro'z	Qarshi shahar Kat mahallasi
*	етчик)	

5-rasm. So‘rov jarayoni


#### 4. Microsoft Access da forma hosil qilish.

MS Access dasturida forma hosil qilish uchun yangi kiritish ham mumkin yoki avval kiritilgan jadvallar hamda so‘rovlardan foydalanish ham mumkin.



6-rasm. Forma hosil qilish jarayoni


6-rasmida berilganlarni barchasini belgilab narigi tomonga o‘tkazsak u holda bizga tayyor forma hosil bo‘ladi. Hozirgi paytda formalardan ko‘proq to‘lov ishlarida ko‘p foydalanamiz. Masalan: elektr energiya haqi to‘lovi, tabiiy gaz haqi to‘lovi va hokazo.



7-rasm. Forma bilan ishlash jarayoni


## 5. Microsoft Access da hisobotlar tayyorlash.

MS Access da hisobot tayyorlash uchun tayyorlangan ma'lumotlarni jadvalli, so'rov tipidagi yoki forma tipidagi ma'lumotlarni tanlab olamiz. Ularning kerakli ustunlarini belgilab olamiz.



8-rasm. Hisobot hosil qilish jarayoni

9-rasmdan hisobotni kerakli ustunlarini tanlab olamiz va narigi tomonga o'tkazamiz. Agar hohlasak barcha ustunlarini o'tkazishimiz mumkin. Ish bajarilgach Готово tugmasini bossak bizga hosil qilinishi lozim bo'lgan hisobot paydo bo'ladi. Ushbu hisobotni biz MS Office dasturlaridan biriga MS Word yoki MS Excel ga o'tkazib olishimiz mumkin.



9-rasm. Hisobotning ko‘rinishi

### Nazorat savollari:

1. Ma'lumotlar bazasi haqida ma'lumot bering.
2. MS Access dasturining imkoniyatlarini aytib bering.
3. MS Access dasturining menyulari haqida ma'lumot bering.
4. MS Access da maydonlarning qanday turlari mavjud?  
MS Access da makroslar o'rnatish haqida ma'lumot bering.

## Amaliy mashg'ulot № 9.

**Mavzu: Axborot komplekslarida ma'lumotlar bazasini tashkil etish va boshqarish.**

**Ishning maqsadi:** Talabalarga ma'lumotlar bazasi, ya'ni Microsoft Access dasturi haqida ma'lumot berish, MS Accessda jadval, so'rov, forma hamda hisobot jadvallar tayyorlash malaka va ko'nikmalarni hosil qilish.

**Topshiriq:**

- 1) Nazariy qism bilan tanishish.
- 2) Ikkita jadvaldan tashkil topgan shaxsiy ma'lumotlar bazangizni yarating.(berilgan variant uchun).
- 3) Ma'lumotlar bazasi bo'limining (работа с базами данных) ichidan berilganlar sxemasi (схема данных) buyrugini bajaring va jadvallarni boglang.
- 4) Bu jadvallardan aniq berilganlar uchun tanlab (для выборки) va parametrlri (с параметром) so'rov(запросы) yarating.
- 5) Olingan jadval so'rov natijalaridan obekt xisibotlarini(отчеты) yaratish.
- 6) Bajarilgan ish bo'yicha xisobot taylorlang.

**Nazariy qism:**

MS Access MS Office 13 dasturlar paketining bir qismi bo'lib, Access formatidagi (fayllar kengaytmasi(\*.mdbx yoki accdb) ma'lumotlar bazasini yaratish imkonini beruvchi interaktiv tizimdir. MS Accessda fayl, bir nechta jadvaldan hamda modullar so'rovlari,hisobotlar, formalar kabi boshqa bir qator ob'ektlardan tashkil topgan.

Jadval-aniqlangan ma'lumotlar yigilmasi bo'lib, har bir jadval strukturasida keltirilgan maydonlardan tashkil topgan yozuvlar ko'rinishida keltirilgan bo'ladi. Ma'lumotlar bazasida jadvalni "Вставка" tavsiyanomasidan "Таблица" punktini tanlab yaratish mumkin. Таблицу в базе данных можно создать, выбрав в меню "Вставка" пункт Таблица. Keyin quyida keltirilgan usullardan birini qo'llash mumkin:

1. Jadval rejimi (Режим таблицы) — oddiy usulda ma'lumotlarni kiritish yoki jadvaldagi usullarning nomini o'zgartirish yo'li bilan(masalan, xuddi MS Exceldagidek).
2. Loyixalovchi (Конструктор)—konstruktor rejimida jadval yaratish,bunda xar bir maydon va uning parametrлari aniq bo'ladi.
3. Jadval ustasi (Мастер таблиц)— foydalanuvchiga turli xil ma'lumotlar bazasining nomlari ko'pincha qo'llanilishi mumkin bo'lgan maydonlarni tavsiya etuvchi, master yordamida jadval yaratish. Sizga faqat mos kelgan o'sha maydonlarni aniq ko'rsatish kerak, shunda jadval avtomatik ravishda yaratiladi.

**1-topshiriq:** "Firma"ma'lumotlar bazasini yaratish.

**Topshiriqni bajarish tartibi:**

- Access 2013 ni ishga tushiring.
- ”Firma” deb nomlangan ma’lumotlar bazasini tuzamiz.
- Ishlab chiqaruvchilar har doim mijozlari bilan ishlaydi va ularning buyurtmalarini bajaradilar.

Agar barcha ma’lumotlarni bitta jadvalga joylashtirsa, ish uchun bir qancha noqulayliklar tug’diradi. Misol uchun jadvaldagi ma’lumotlar takrorlanadi. Ko’pincha ishlab chiqaruvchilar biror-bir firma mijozlari bilan ishlash jarayonida ma’lumotlarni yangidan tuzadi, natijada ko’plab xatoliklar ro’y beradi. Xatolar sonini kamaytirish uchun, asosiy jadvalni yaratish kerak va bir qancha jadvallarni unga aloqasini ta’minlash zarur. Bu yanada samaraliroq natija beradi.


Xuddi shunday 3 ta quyidagi jadvalni yaratamiz:

### **Ishlab chiqaruvchi,**

### **Mijozlar,**

### **Buyurtmalar.**

Buning uchun Создание vkladkasidan konstruktor tabliçni tanlaimiz.



- 1- Konstruktor rejimida jadval yaratish tugmasi.  
Keyingi qadamda quyidagi ma’lumotlarni kiritamiz.

Ishlab chiqaruvchi	
Имя поля	Тип данных
Kod_ishlab_chiqaruvchi	Очтывчик
Familiyasi	Короткий текст
Ismi	Короткий текст
Sharifi	Короткий текст
Lavozimi	Короткий текст
Telefon	Короткий текст
Manzili	Короткий текст
Tug'ilgan yili	Дата и время
To'lanadigan to'lov	Денежный
Foto	Поле объекта OLE
Elektron pochta	Гиперссылка

- 2-rasm. Ishlab chiqaruvchi maydoni va ma’lumot turlari  
Va burchakdagi X tugmasini bosamiz va Unga “Ishlab chiqaruvchi” deb nom beramiz. Shu tarzda qolga ikkita jadvalani ham yaratamiz.

Mijozlar	
Имя поля	Тип данных
Kod_Mijoz	Очтывчик
Kompaniyaning atalishi	Короткий текст
Adres	Короткий текст
Telefon nomeri	Короткий текст
faks	Числовой
Elektron pochta adresi	Гиперссылка
Izoh	Поле объекта OLE

- 3-rasm. Mijozlar maydoni va ma’lumot turlari

Имя поля	Тип данных
Kod bururtma	Счетчик
Kod_mijoz	Числовой
Kod_ishlab_chiqaruvchi	Числовой
Buyurtma tushgan kun	Дата и время
Bajarilgan kun	Дата и время
Summa	Денежный
bajarilganlarni belgilash	Логический

4-rasm. Buyurtmalar maydoni va ma'lumot turlari

Jadvallarni yaratgandan so'ng, ularni ma'lumotlar bilan to'ldirish talab etiladi. Buning uchun "Ishlab chiqaruvchi" jadvalini ishga tushiramiz va quyidagi yozuvlarni kirtamiz.

Sharifi	Lavozimi	Telefon	Manzili	Tug'ilgan yili	Toladanigan tolov	Foto	Elektron pochta
Olimovich	direktor	2211318	Qarshi shaxri	12.03.1975	150 000,00p.	Bitmap Image	chori@mail.uz
Omonovich	Buxgalter	2446678	G'uzor	05.09.1983	265 366,00p.	Bitmap Image	Baxriyev@mail.ru
Sobirovich	Buxgalter	2543545	Qamashi	15.05.1982	3 276 727,00p.	Bitmap Image	Salimov@mail.uz
Otabekovich	tadbirkor	5666255	Qarshi	14.05.1991	765 656,00p.	Bitmap Image	Amanov@mail.uz
Shokirovich	direktor	66565888	Qarshi	16.09.1970	290 000,00p.	Bitmap Image	Aripov@mail.ru

5-rasm: "Ishlab chiqaruvchi" jadvalini ma'lumotlari

Kompaniyaning atalishi	Adres	Telefon nomeri	faks	Elektron pochta adresi	Izoh
Sho'rtan USHK	G'uzor tumani	4241566	2215556	Sho'rtam@rambler.ru	d Document
Qandim USHK	Buxoro	2573888	2256898	Qandim@mail.uz	tmap Image
Muborak Neft gaz	Muborak	2666267	2355577	Muborakgaz@mail.uz	
Gissarneftgaz	Toshkent	5346775	3656354	Gissana@mail.ru	
Eriellneftgaz	Toshkent	6536547	8347767	Eriell@eriel.com	

6-rasm: "Mijozlar" jadvalini ma'lumotlari

Kod bururtma	Kod_mijoz	Kod_ishlab_chiqaru	Buyurtma tush.	Bajarilgan kun	Summa	bajarilganlarni
1 Eriellneftgaz	Amanov		01.03.2017	24.04.2017	734 676 348,00	<input checked="" type="checkbox"/>
2 Eriellneftgaz	Amanov		05.04.2017	14.04.2017	47 887 899,00	<input checked="" type="checkbox"/>
3 Gissarneftgaz	Azimov		27.03.2017	08.04.2017	47 637 788,00	<input checked="" type="checkbox"/>
4 Muborak Neft gaz	Baxriyev		26.04.2017	25.04.2017	23 767 678,00	<input type="checkbox"/>
5 Qandim USHK	Salimov		28.04.2017	30.04.2017	467 626,00	<input type="checkbox"/>
6 Sho'rtan USHK	Azimov		05.04.2017	05.04.2017	16 770,00	<input checked="" type="checkbox"/>
7 Sho'rtan USHK	Salimov		12.04.2017	15.04.2017	162 778,00	<input type="checkbox"/>
8 Gissarneftgaz	Azimov		05.04.2017	19.04.2017	232 323 440,00	<input type="checkbox"/>

7-rasm: "Buyurtmalar" jadvalini ma'lumotlari

#### 4.Kalitlarni boshqarish.

Bu uchalla jadvalni aloqasini bog'lash uchun kalitlarni quyish kerak bo'ladi. Kalitlar 2 ga bo'linadi: birlamchi kalit va ikkilamchi kalit.

Kalitlarni qo'yish uchun "ishlab chiqaruvchi" jadvalini konstruktor rejimida ochamiz va "Kod\_ishlab\_chiqaruvchi" maydoni ustiga sichqonchaning chap tugamsini bosamiz va Ключевой поле tugmasini bosamiz.

	Имя поля	Тип данных
	Kod_ishlab_chiqaruvchi	Счетчик
	Familiyasi	Короткий текст
	Ismi	Короткий текст
	Sharifi	Короткий текст
	Lavoziyi	Короткий текст
	Telefon	Короткий текст
	Manzili	Короткий текст
	Tug'ilgan yili	Дата и время
	To'llanadigan to'lov	Денежный
	Foto	Поле объекта OLE
	Elektron pochta	Гиперссылка

8-rasm: Birlamchi kalitni o'rnatish. 9-rasm: Ikkilamchi kalitni o'rnatish.

Natijada quyidagiga ega bo'lamiz.

Qolgan Mijozlar va Buyurtmalar jadvallariga ham yuqoridagi amallarni bajarib kalitlar qo'yamiz.

	Имя поля	Тип данных
	Kod_Mijoz	Счетчик
	Kompaniyaning atalishi	Короткий текст
	Adres	Короткий текст
	Telefon nomeri	Короткий текст
	faks	Числовой
	Elektron pochta adresi	Гиперссылка
	Izoh	Поле объекта OLE

10 -rasm: Mijos jadvalida kalitlar qo'yish.

### So'rovlar hosil qilish.


*Surov – o'zaro bog'langan jadvallarda berilgan shartga muvofiq tanlab olingan shartlardan hosil bo'lgan jadval.*

Surovlar tashkil yetilganda axborotlarni tartiblash, filterlash (saralash), birlashtirish, o'zgartirish mumkin.Lekin bunday uzgarishlar ma'lumotlar omborining asosiy jadvallaridagi axborotlari a'sir etmaydi

**2-topshiriq:** So'rovlar yaratish.


### Topshiriqni bajarish tartibi:

So'rov hosil qilish uchun **РАБОТА С БАЗАМИ ДАННЫХ** vkladkasidan **Схема данных** tugmasini bosamiz.




11-rasm: Sxema dannixni ishgaga tushirish oynasi.

Hosil bo'lgan oynaning bo'sh qismiga sichqonchaning o'ng tugmasini bosamiz va **Добавить таблицу** bo'limini tanlaymiz.




12-rasm. Jadvallarni aloqasini bog'lash oynasi.

Keyingi muloqot panelidan **ishlab chiqaruvchi**, **mijozlar**, **buyurtmalar** yozuvlarini birma-bir tanlab, sichqonchani chap tugmasini 2 marta tez-tez bosamiz va quyidagiga ega bo'lamiz.




13-rasm: Mijozlar, Buyurtmalar, Mijozlar jadvallarning kiritilishi.

Endi jadvallarni bog'lash uchun **Ishlab chiqaruvchi** jadvalidagi, **Kod ishlab\_chiqaruvchi** maydonini sichqonch chap tugmasini bosgan holatda 2-jadval **Buyurtmalar** jadvalaidagi **Kod ishlab\_chiqaruvchi** maydoni ustiga olib borib tashlaymiz.




14-rasm: Kaskadli bog'lash paneli.

Bu muloqot oynasidan **Обеспечение целостности данных, каскадное обновления связанных полей, каскадное удаление связанных записей** yozuvlari oldiga quyidagi belgilarni qo'yamiz.



15-rasm: Jadvallarni birga ko'p aloqasini ta'minlaysh paneli.


Keyingi amalimiz, **Mijozlar** jadvalidan, **Kod\_mijoz** maydonini (sichqonchaning chap tugamasini bosib turgan holatda) tanlab, **Buyurtmalar** jadvalidagi **Kod\_mijoz** maydoni ustiga sudrab tashlaymiz, xuddi yuqoridagi kabi, amallarni bajarib quyidagilarga ega bo'lamiz.



16-rasm: Jadvallarning bo'g'liqligini tasvirlanishi.

Burchakdagi **X** tugmani bosib sxemani saqlaymiz. Endi so'rovlar hosil qilishni boshlaymiz.

- 1.СОЗДАНИЕ vkladkasidan **Мастер запросов** tugmasini bosamiz.
- 2.Muloqot oynadan **Простой запрос** ni tanlab OK tugmasini bosamiz.
- 3.Keyingi oynadan **Таблица и Запросы** bo'limidan, **Таблица:Ishlab chiqaruvchini** tanlaymiz va **Доступные поля**dan, **Выбранные поля**ga, *Familiyasi, ismi, telefon* maydonlarini > ni bosib o'tkazamiz va **Далее** tugmsini bosamiz.



17-rasm. Maydonlarni tanlash muloqot oynasi.

- 4.Keyingi **Задайте имя запроса:** bo'limiga *telefon\_raqamlar* yozuvini kiritib **Готово** tugmasini bosamiz.


**2-topshiriq:** Forma yaratish.

### **Topshiriqni bajarish tartibi:**

Jadvallarga ma'lumotlarni kiritish maqsadida **MS Access**ning maxsus obekti – Formalardan (**Формы**) foydalilanildi.


MS Accessning Formalar obektini elektron blankalarga uxshatish mumkin. Jadvalga ma'lumotlarni undagi maydonlar orqali kiritiladi va kiritilgan ma'lumotlar jadvalda avtomatik tarzda saqlanib qoladi.

1. Oynaning yuqori qismidan **СОЗДАНИЕ** bo'limidan **Мастер форм** tugmasini bosish yetarli.



18-rasm: Forma yaratish tugmalari to'plami.

2. Hosil bo'lgan muloqot oynadan **Таблица и Запросы** bo'limidan, **Таблица: Ishlab chiqaruvchini** tanlaymiz va **Доступные поля**, **Выбранные поля** > tugmasni ni bosib o'tkazamiz va **Далее** tugmasini bosamiz.



19-rasm: Forma yaratish uchun maydonlarni tanlash muloqot oynasi.

3. Keyingi oynadan formaning ko'rinishini tanlaymiz, misol uchun, **один столбец** oldiga belgi qo'yib, **Далее** tugmasni bosamiz.

4. Keyingi oynada formaga nom beramiz, Buning uchun yuqori qismida joylashgan **Задайте имя формы** qismiga **ma'lumot** deb kiritamiz va **Готово** tugmasini bosamiz.

5. Natijada ekranda forma ochiladi.




6.

20-rasm: Ma'lumot nomli forma ko'rinishi:

**3-topshiriq:** Hisobot yaratish.


**Topshiriqni bajarish tartibi:**

1. Oynaning yuqori qismidan **СОЗДАНИЕ** bo'limidan **Мастер отчет** tugmasini bosish yetarli.



21-rasm: Hisobot yaratish tugmalari to'plami

2. Hosil bo'lgan muloqot oynadan **Таблица и Запросы** bo'limidan, **Таблица: Mijozlar** jadvalini tanlaymiz va **Доступные поля**дан, **Выбранные поля**га, *Kod\_mijoz, Kompaniyaning atalishi, Adres, telefon nomeri, faks, Elektron pochta adresi, Izoh maydonlarini* >> tugmasni ni bosib o'tkazamiz va **Далее** tugmasini bosamiz.




22-rasm: Hisobot yaratish uchun maydonlarni tanlash muloqot oynasi.

3. Keyingi oynada hisobot maydonlarini guruhlash taklif etiladi. Bu yerdan biz yana **Далее** tugmasini bosamiz.

4. Bu oynadan ham **Далее** tugmasini va oxirgi oynadan **Готово** tugmasni bosamiz.

5. Natijada ekranda Hisobot oynasi ochiladi.



20-rasm: Mijozlar nomli hisbotning ko’rinishi:

6. Bu hisobotni printerga chop qilishingiz, istalgan joyga tqdim etishingiz mumkin.

**Nazaorat savollari.**

1. Ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlari nima?
2. Ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlarining yaratilish sabablari.
3. Ma’lumotlar omborini boshqarish tizimlariga misollari keltiring?
4. MS ACCESS dasturining boshka MBBT lardan qulayliklari nimada?
5. So’rov nima va uning imkoniyatlari nimalardan iborat?
6. So’rovlardan necha xil usulda tashkil etiladi? So’rov tashkil yetish jarayonini ko’rsatib bering.

So’rovlarning muxim xususiyatlari nimalardan iborat?

## Amaliy mashg'ulot № 10

**Mavzu: Relyatsion MBBT lari MS Access, ORACLE da iqtisodiy ma'lumotlarni kiritish va yechish.**

**Ishning maqsadi:** Relyatsion MBBT lari MS Access, ORACLE da iqtisodiy ma'lumotlarni kiritish va yechish ko'nikmalarini hosil qilish.

**Nazariy qism:**

### **Ma'lumotlar bazasini yaratish modellari.**

Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimida har bir MB modeli quyidagi hususiyatlari buyicha tavsiflanadi:

- Ma'lumotlar tuzilmalarining turi.
- Ma'lumotlar ustida bajariladigan amallar.
- Butunlikning cheklanganligi.

Bu hususiyatlarni e'tiborga olgan holda ma'lumotlar bazasini yaratish modellari quyidagi turlarga bo'linadi:

- **Daraxtsimon (iyerarxik) yoki pog'onali modellar.**
- **Tarmoqli (turli) modellar.**
- **Relyatsion modellar.**

**Daraxtsimon (iyerarxik) modeli** pastki pog'onadagi yuqori pog'onadagiga bo'ysinish tartibida joylashgan elementlar to'plamidan iborat bo'ladi va ag'darilgan daraxtni tashkil etadi. Daraxtsimon (iyerarxik) modelda ob'ektlar yozuvlar ko'rinishida ifodalanadi.

**Iyerarxik modelda** ikki yarusdagi (qatlam) elementlar bog'langan bo'lsa unday ma'lumotlar **tarmoqli (to'rli)** modelda ifodalangan deyiladi. Tarmoqli modelda ham ob'ektlar daraxtsimon modellardagi kabi yozuvlar ko'rinishida tasvirlanadi.

**Relyatsion** (lotin tilida relatio-munosabat so'zidan olingan) **modelda** ma'lumotlarni saqlash uni tashkil etuvchi qisimlari orasidagi munosabatlarga asoslangan. Relyatsion modellarda ob'ektlar va ularning o'zaro aloqalari jadval ko'rinishda tasvirlanadi.

Bunda tegishli ma'lumotlar jadvalning ustun va qatorlarida joylashadi. Ustunlar ma'lumotning **maydonlarini**, qatorlar esa **yozuvlarni** ifodalaydi. Bir ustunda ma'lum sohaga tegishli bo'lgan bir qancha ma'lumotlar joylashadi. Qatorda esa ustunlarda joylashgan ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ustun va qator o'rtasidagi bog'lanish **munosabat deb ataladi**. Har bir ustun, qator va munosabat o'z nomiga ega bo'ladi.

Relyasion MBBT lari keng tarqalgan bo'lib, ular jumlasiga **dBase III Plus**, **dBase IV**, **FoxBase**, **FoxPro**, **Karat**, **Clipper**, **Paradox**, **Oracle**, **MS Access** va boshqalar kiradi.

### **Relyatsion MBBT**

Informatsion modellashtirishning maqsadi – tuziladigan ma'lumotlar bazasida shaklanishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarni tasvirlash va yig'ish usullarini odamlar uchun ayniqsa tabiiy ta'minlashdir. Shuning uchun ma'lumotlarning infomantiqiy modelini tabiiy tilga mos qilib qurishga harakat qilinadi.

Infologik modelni qurishning asosiy konstruktiv elementlari:

9 mohiyat;

9 mohiyatlar orasidagi bog'lanish;  
9 xossalari (atributlar).

Mohiyat – har xil ob'ekt (ob'ekt -bu biz ularni bir biridan farqlaymiz), uning ma'lumotlari ma'lumotlar bazasida saqlanadi. Mohiyat odam, joy, samalyot, reyslar, gullar va boshqalar bo'lishi mumkin. Mohiyat turi va mohiyat nusxasi tushunchalari mavjud, ularni bir biridan farqlash kerak.

Mohiyat turi tushunchasi bir jinsli narsalar, hodisalar, shaxslar uchun qaraladi. Mohiyat nusxasi tushunchasi aniq narsalar to'plami sifatida qaraladi. Masalan, mohiyat turi SHAHAR bo'lishi mumkin, uning nusxasi esa – TOSHKENT, MOSKVA bo'lishi mumkin.

Atribut (xossa) -mohiyatni xarakterlovchi nomlardir. U o'zida yagona murakab bo'limgan strukturani tasvirlab, mohiyat holatini xarakterlaydi. Masalan, "O'quvchi" mohiyati atributi -kod, familiya, ism, manzil, yosh va boshqalardir.

Mohiyat atributlari to'plami cheksizdir. U axborot tizimlari bilan ishlaydigan foydalanuvchi talabiga va echiladigan masalaga bog'liqdir.

Yana bir misol: AVTOMOBIL mohiyati atributi bu – tip(tur), marka, nomer belgisi, rangi va boshqa. Bu erda tur bilan nusxa orasida farq mavjud. Rang atributi turi ko'p qiymatli yoki nusxada. qizil, ko'k, oq, va boshqa.

Mohiyat va atribut turlari orasida absolyut farq yo'q. Mohiyat turi bilan aloqada faqat atribut bor. Boshqacha kontekstda atribut o'zi mustaqil mohiyat bo'lib qatnashishi ham mumkin. Masalan, avtomobil zavodi uchun rang – bu faqat ishlab chiqarish mahsuloti atributi, lak kraska fabrikasi uchun esa rang – mohiyat turidir.

Kalit – atributlarning minimal to'plami, uning qaymati yordamida kerakli mohiyat nusxasini topish mumkin. "Raspispnie" mohiyati samolyotlar uchishi uchun kalit "Nomer reysa" yoki "Punkt otpravleniya", "Vremya vleta" va "Punkt naznacheniya" to'plam bo'ladi.

Aloqa – ikki yoki undan ortiq mohiyatlarning (assotsiyasidir) bir biri bilan o'zaro bog'lanishidir. Agar ma'lumotlar bazasini faqat bir biri bilan bog'lanmagan ma'lumotlar bilan to'ldirishga yo'naltirilsa, u holda uning strukturasi juda oddiy bo'ladi. Lekin, MBni tuzishning asosiy talablaridan biri – bu boshqa mohiyat qiymati bo'yicha bitta mohiyatni izlab topish imkoniyatini ta'minlashdir. Buning uchun ular orasida aloqani aniqlashni tashkil etish zarur. Real ma'lumotlar bazasida yuzlab yoki minglab mohiyatlar bir biri bilan millionlab aloqa o'rnatishi kamdan-kam bo'ladi. Bunday aloqalar to'plami infomantiqiy modelning murakkabligini aniqlaydi.

**Ma'lumotlar bazasi** – ma'lum sohaga oid o'zaro boglangan ma'lumotlar yig'indisining disk tashuvchidagi tashkiliy jamlanmasi.

**Relyacion ma'lumotlar bazasi** – ikki o'lchamli jadvallarning mohiyat-munosabat mehanizmi orqali bog'lanishidir. Relyacion ma'lumotlar bazasining logic aloqasi o'zaro logic bog'langan jadvallar majmuini tashkil etadi.

Ma'lumotlarning relyacion modeli normallashtirish orqali yaratiladi. Normallashtirish jarayoni qayta takrorlanuvchi ma'lumotlarni yangi jadvalga kuchirishdan iborat hodisadir. Relyacion jadval structurasi maydon bilan belgilanadi. Maydonga ma'lumot turi v ahajmi kabi hossalar kiritiladi.

Maydon tarkibi jadval ustunlarida keltiriladi.

Har bir qator ma'lumotning bitta ekzempliyari bo'lib, yozuv deb nomlanadi. Har bir yozuvni identifikatsiyasi uchun unikal birlamchi kalit qullaniladi. Kalit bir yoki bir nechta maydondan iborat bo'lisi mumkin. Ikki jadvalni bog'lash uchun tashqi kalitdan foydalaniladi. Bunda birga-bir (1:1), birga-kup(1:N) va kupga-kup(M:N) munosabatlar urnatilishi mumkin.

### **Realasion ma'lumotlar omborining mantiqiy tuzilmasi.**

Realasion ma'lumotlar omborining mantiqiy tuzilmasi boshqa qo'shimcha o'zgartishlar talab etmaydigan axborot – mantiqiy modelning aks ettirmasidir.

Har bir ma'lumotlar modelining informasiyon obekti mos keluvchi realasion jadvallar orqali aks ettiriladi. Realasion tablisalarning tuzilmasi mos keluvchi informasiyon obektlarning rekvizitli sostavi orqali aniqlanadi, qaysiki har bir ustunga obektning birorta rekvizitlari mos keladi. Obektning kluchevoy rekvizitlari realasion jadvalning unikal kalitlari bo'ladi. Har bir ustunga uning tipi ma'lumotlar razmeri va boshqa har hil hossalar beriladi. Jadvalning har bir satr(yozuvi) obekt ekzemplayarlari bo'ladi va jadval yuklanayaotganda hosil bo'ladi.

Ma'lumotlar modellarining obektlari orasidagi boglanish obektning bir hil rekvizitlari orqali amalga oshiriladi yani mos keluvchi jadvallarning boglovchi kalitlari orqali amalgam oshiriladi. Bunda har doim boglovchi kalit bosh jadvalning unikal kaliti bo'ladi. Bo'ysunuvchi jadvalning boglovchi kaliti unikla kalitning bir qisimi yoki birlamchi kalit tarkibiga kirmaydigan maydon bo'lisi mumkin. Bo'ysunuvchi jadvalning bog'lovchi kalitini har doim tashqi kalit deb ataladi.

Access da ma'lumotlar omborining mantuqiy tuzilmasini aks ettiruvchi ma'lumotlar sxemasi yaratilishi mumkin. Birga-ko'p boglanishlar bu sxemada qurilgan ma'lumotlar modeliga qarab aniqlanish kerak bo'ladi. Ma'lumotlar sxemasining tashqi ko'rinishi informasiyon mantiqiy modelning grafik ko'rinishi bilan ustma-ust tushadi.

### **Oracle MBBT ishlash texnologiyasi.**

Bazada saqlanayotgan ma'lumotlarni xafsizligini saqlash maqsadida Oracle(MBBT) da juda ko'p ishlar amalga oshiriladi. Ma'lumotlar bazasini tashkil etgan fayllarni:

**Ma'lumotlar bazasi fayllari va ma'lumotlar bazasiga tegishli bo'limgan fayllar ko'rinishida ajratishimiz mumkin.** Ma'lumotlar bazasi fayllarida ma'lumotlar saqlanadi, ma'lumotlar bazasiga tegishli bo'limgan fayllarda har xil protokollar, sozlashlar kabi qo'shimcha ma'lumotlar saqlanadi. Bu ma'lumotlar bilan Oracle administratorlari ruxsat bergen foydalanuvchilargina ishlay oladi.

Oracleneing juda ko'p utilitlari (Rman, Oracle Data Guard, Oracle Data Grid,...) mavjud bo'lib, ular ham ma'lumotlarni foydalanuvchi uchun qulay ko'rinishda taqdim etish (boshqarish, nazorat qilish) uchun ishlatiladi. Misol uchun **Rman** utilitasini oladigan bo'lsak, bu utilita bazani to'liq yoki qisman zahira nusxalarini juda katta hajmga kamaytirib (siqib) hosil qiladi va saqlash uchun o'zi tushunarli bo'lgan kodlarga aylantiradi. Bazaga shikast etganda shu zahira nusxa orqali bazani qayta tiklash mumkin bo'ladi.

Oracle, SQL kodlari orqali buyruqlarni qabul qiladi. Bu so'rov tili ma'lumotlar bazasini yuklash, uni to'xtatish, montirovka qilish, jadvallar yaratish, o'chirish, o'zgartirish, ma'lumotlar ichidan kerakligini chiqarib olish va boshqa vazifalar uchun ishlataladi. Bu til juda ko'p **Ma'lumotlar Bazasini Boshqarish Tizimlari** uchun umumiy hisoblanadi. SQL kodlari bir yoki bir necha jadvallar ustida so'rovlarni amalga oshira oladi.

Ma'lumotlarni boshqarishda foydalanuvchilarga qulaylik yaratish maqsadida Oracle dasturi yaratuvchilari **Oracle Enterprise Manager** deb nomlangan web sahifa yaratishgan bo'lib, bu sahifa orqali butun Oracleni boshqarish mumkin bo'ladi. SQL kodlarini bilmaydigan foydalanuvchilar ham bu web sahifa orqali barcha vazifalarni bajarishi mumkin, buning uchun faqatgina kerakli "**ssylka**" larni bosish kifoya.

**Oliy o'quv yurti deb nomlangan ma'lumotlar bazasi 8 ta jadvaldan tashkil topgan va ular quyidagilar.**

**1-jadval** “Rektarat” deb nomlangan bo'lib unda Rektaratda ishlovchilar haqida ma'lumotlar boladi.

ID	FIO	Lavozimi
1		
2		

**2-jadval** “Markazlar” jadvali bo'lib u quyidagi qismlardan tashkil topgan:

ID	Markaz nomlari
1	
2	

**3-jadvalda** “Filiallar” haqida ma'lumotlar joylashgan bo'ladi.

ID	Nomi
1	
2	

**4-jadval** “Fakultet” haqidagi jadval bo'lib unda quyidagi ma'lumotlar bor.

ID	fakultetlar	Guruhlar soni
1		
1		

**5-jadval.** “fakultetlar” deb nomlangan bo'lib unda fakultetlar tarkibidagi yo'nalishlar va kafedralar haqida ma'lumot bo'ladi.

ID	Yo'nalishlar	Kafedralar

1		
1		

**6-jadval** “Kafedralar” deb nomlangan bo’lib unda kafedrada ishlovchi o’qituvchilar haqida ma’lumotlar joylashgan bo’ladi.

ID	FIO	Lavozimi
1		
2		

**7-jadval** “Yo’nalishlar” deb nomlangan bo’lim unda yo’nalish ichidagi guruhlar haqida ma’lumotlar bo’ladi.

ID	guruhlar
1	
2	

**8-jadval** “guruh” deb nomlangan bo’lib unda talabalar haqida malumotlar bo’ladi.

ID	Fam	Ism	Ochistva	Tugulgan sanasi	O’quv turi
1					
2					

### Xulosa:

Biz 7-labaratoriya ishini bajarish davomida relyatsion model haqida ya’ni uning tuzilishi,relyatsion model strukturasi haqida ma’lumotga ega bo’ldik.

### Topshiriqlar:

1. Obyektga yo’naltirilgan ma’lumotlar bazasi.
2. Kodd relyatsion algebrasi. Relyatsion hisoblash.
3. Obyektli maxlumotlar bazasi. Loyixalash, qayta ishlash va tadqiq etish.
4. NoSql ma’lumotlar bazasi va uning asosiy prinsiplari.
5. Ma’lumotlar bazasini shakllantirishda texnologiyalar perspektivalari.
6. Amaliyotda ma’lumotlar bazasini qurishda ma’lumotlarning relyatsion modeli.
7. ORACLE ma’lumotlar bazasi.
8. Ma’lumot bazasi tizimining arxitekturasi.
9. Relyatsion ma’lumot modeli. Ma’lumotlar bazasida munosabatlar.
10. Ma’lumotlar bazasini rejalashtirish, loyihalashlash va administratorlash.
11. SQLtili. SQL operatorlarini yozish.
12. Tranzaksiyalarni boshqarish.
13. Ma’luotlar bazasini administratorlash va xavfsizligini ta’minlash.
14. Ochiq ma’lumotlar bazasi aloqasi (ODBC) interfeysi.

15. ADO texnologiyasidan foydalanish.
16. ADO va C++ orqali maydon qiymatlarini kiritish, yozuvlarni o‘zgartirish, qo‘shish va o‘zgartirish.
17. XML va ma’lumotlar bazasi.
18. C++ va SQL orqali yangi ma’lumitlar qo‘shish, o‘zgartirish va o‘chirish.

**Nazaorat savollari.**

1. Ma’lumotlar bazasi va ma’lumotlar banki haqida tushuncha?
2. Ma’lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT) va uning turlari.
3. Ma’lumotlar bazasini yaratish modellari.
4. Oracle MBBT ishslash texnologiyasi?

## Amaliy mashg'ulot № 11.

**Mavzu:** Axborot komplekslari o'rtaida o'zaro integratsiya.

**Ishning maqsadi:** Axborot texnologiyasining integratsiyasi haqida tushuncha hosil qilish, integratsiyalashgan axborot tizimlari, axborotdan umumiy foydalanish tizimi.

### **Topshiriq:**

1. Axborot komplekslari o'rtaida o'zaro integratsiyasini mohiyatini yoritib bering.
2. Axborot texnologiyasining integratsiyasi haqida tushunchangiz.
3. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining konseptual modelini yoriting.
4. Axborot tizimining funksional modelini qanday tasvirlash mumkin.
5. Axborot muhiti nima.
6. Axborot tizimining namunaviy tarkibi nimalardan iborat.
7. Axborot tizimlarini miq'yosi, qo'llanilish sohasi, tashkil etish usuli bo'yicha sinflari.
8. Axborot tizimlarini texnik tuzilishi bo'yicha sinflanishi.
9. Texnik vositalarga nimalar kiradi.
10. Hisoblash majmuisiga asoslangan Axborot tizimi.
11. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining afzalliklari.
12. Tuzilish jihatdan axborot-hisoblash tarmoqlari o'z ichiga nimalarni oladi.
13. Chiziqli adapterlar nima.
14. Chiziqli adapterlar nima vazifani bajaradi.
15. Axborot tizimini arxitekturasini tasniflash qabul qilingan.
16. Axborot tizimlarining masalaning tuzilishi bo'yicha sinflari.
17. Axborot tizimlarini avtomatlashtirish darajasi bo'yicha sinflanishi.
18. Axborot tizimlarini avtomatlashtirish tuzilishi.

### **Nazariy qism:**

#### **Axborot texnologiyasining integratsiyasi haqida tushuncha.**

Mazkur tizim birgalikda harakat qiluvchi kompyuterlar va telekommunikatsiyalar, kompyuter axborot mahsulotlarini ishlab chiqish va qarorlar qabul qilishni qo'llab – quvvatlash uchun mo'ljallangan.


Shuni qayd etish lozimki, axborot almashuv jarayoni insonning eshitish, ko'rish, anglash a'zolari orqali qabul qiladigan nutq, ma'lumot yoki tasvirlar bilan boshlanadi va tugaydi. Keladigan – chiqadigan bu elementlar o'rtaida kompyuterlashgan axborot tizimida turli darajadagi elektron mahsulotlar bo'ladi.

Bular – operatsion tizimlar, ma'lumotlar bazalarini bio'qarish tizimi, amaliy dasturiy ta'minot va axborotning o'zidir. Ushbu axborot va dasturiy vositalar hamda komponentlardan ko'-pincha aynan bir paytda va o'sha vaqtida foydalanib bo'lmaydi. Shuning uchun ham bunday axborot tizimlarining o'ziga xos tomoni shundaki, ma'lumotlarni qayta ishslash jarayoni vaqtida ular aralashib ketadi.

AATning konseptual modeli. Axborot tizimi foydalanuvchilarning talabiga muvofiq axborotlarni yig'ish, qayd etish, uzatish, saqlash, tuplash, qayta ishslash, tayyorlash va taqdim etishga mo'ljallangan. Konseptual nuqtai nazardan qaraganda,

axborot tizimi – bu operatsiyani bajaruvchi tizim va boshqaruvchi tizim o‘rtasidagi vositachi sanaladi.


Axborot texnologiyasi axborot tizimi ichidagi texnologiya sanaladi. Axborot tizimi tizimdagi ma’lumotlar, axborotlar bilan operatsiyani amalga oshiradi. Axborot tegishli muammoga qaratilgan bo‘lib qarorlar qabul qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Axborot hal etilishi lozim bo‘lgan vazifaga muvofiq va ushbu vazifani hal etuvchi xodimning qobiliyatiga muvofiq qayta ishlanadi.



Axborot tizimining funksional modeli. Axborot tizimining funksional modelini quyidagicha tasavvur etish mumkin.

Mazkur modeldan kurinib turibdiki, axborot tizimining sohasi axborot obektlari majmuidan iborat axborot makonini ifodalaydi. Umuman olganda axborot makoni bir xilda emas, chunki unda [axborotning yuzaga kelishi](#), tashkil etilishi va joylashtirilishi jihatidan farqlanuvchi axborot ob’ektlarini o‘zida saqlaydi.

Tizim orqali barcha axborotlarning yuzaga kelishini quyidagi asosiy protseduralarga ajratish mumkin: saqlash, qidirish, qayta ishlash, kiritish va chiqarish. Birinchi uchtasi ichki bosqich sanaladi to‘rtinchi va beshinchilari esa mazkur tizim bilan axborot manbai va tashqi muhit o‘rtasidagi aloqani ta’minlaydi.



1 – axborotni tashkil etish, [saqlash va taqdim etish tizimi](#);

2 – axborotni kiritish, yangilash va tuzatish tizimi;

3 – axborotni iste’mol qilish tizimi.

## **Axborot muhiti.**

Axborot muhiti o‘zaro bog‘langan uchta tarkibiy qismni o‘z ichiga oladi. Bular: foydalanuvchining axborot tuzilmasi, [axborot texnologiyasi](#), boshqaruvning ishtirot etuvchi ob‘ektlari.

Axborot infratuzilmasi axborotdan o‘z maqsadlariga erishish uchun foydalanadi. Axborot texnologiyalari foydalanuvchilarni zarur texnologiya-lar bilan ta’minlash vositasi sanaladi.

Axborot infratuzilmasi doirasida axborot texnologiyalari foydalanuvchilari ham o‘zaro harakatlanuvchi o‘ziga xos muhit sifatida ko‘rib chiqiladi.

Foydalanuvchi kerakli axborotni olish uchun rasmiy (formal) va norasmiy axborot tizimlari yordamida uning manbaiga murojaat qilishi lozim. Tashqi manbara rasmiy tizim orqali kirib boriladi. Bu tizim axborotni raqam va matnli ma’lumot (statistik hisobotlar, kitob, jurnal, xabar va hokazo) ko‘rinishida taqdim etadi. Ichki manbara murojaat qilish axborot texnologiyalari komponentlari – kompyuterlar, tizimli va amaliy dasturiy ta’milot hamda zarur hollarda kommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiriladi. Ichki manbalar norasmiy tizim vositasida ma’lumotlar bazasidan so‘rovga javob tariqasida foydalanuvchini axborot bilan ta’minlaydi. Foydalanuvchi rasmiy va norasmiy tizimga suyanib ijtimoiy faoliyat, korxona va tashkilot ishini tavsiflovchi axborotni oladi.

An’anaviy axborot texnologiyasi rivojlanishi ikki an’anaviy segment ma’lumot [va matndan tashqari](#), yana qo‘srimcha ikkita segment-tasvir va nutqni qayta ishslashni ta’minlaydi.

Axborot muhiti axborotni qayta ishslash, qabul qilish, o‘tkazish va qidirish qobiliyatiga ko‘ra qismlarga bo‘linadi. O‘z navbatida, qayta ishslash qobiliyatini insonning axborotni qabul qilish imkoniyatiga ko‘ra aniqlanadi. [Ayrim hollarda axborot shakl](#), hajm va hokazo belgilar bo‘yicha tarkiblashtirishni talab qiladi.

Qayd etish lozimki, foydalanuvchi axborot manbaiga muhtoj bo‘ladi. Chunki u axborotni uyg‘unlashtirishga qancha ko‘p vaqt va kuch sarflasa, samaradorlik ham shuncha kam bo‘ladi. Foydalanuvchining faoliyat samaradorligini oshirish uchun axborotni integrallash jarayonini turli yo‘llar bilan amalga oshirish mumkin. Integrallash jarayonining darajasini belgilashni yangi axborot texnologiyalari SHK, MBBTlar ta’minlaydi. Asosiy urg‘u turli xildagi axborotni qayta ishslash imkonini beradigan va o‘z ichiga integrallashgan ma’lumotlarni [qayta ishslash vositalari](#), ma’lumotlar bazalarini boshqarish tizimi, aloqa vosita-lari va matnli protsessorlarni oluvchi amaliy dasturiy ta’milotga qaratiladi.

Axborot tizimining namunaviy tarkibi. Avtomatlashtirilgan axborot tizimiga quyidagilar kiradi: odam-(xodim), texnik vositalar va dasturiy ta’milot. Ular birgalikda boshqaruv usullari uchun ma’lumotlarni qayta ishlaydi.

**Axborot tizimlarini miq’yosi, qo’llanilish sohasi, tashkil etish usuli bo‘yicha sinflari.**

Axborot tizimi tushunchasi ko‘p kirrali, uning mazmuni va mohiyati axborot texnologiyasi qo’llanilayotgan ob‘ektning o‘ziga [xos xususiyatlari](#), xossalari bilan belgilanadi. Axborot tizimini to‘liq va har tomonlama bilish uchun uning o‘ziga xos xususiyatlari tizimini aniqlash kerak bo‘ladi.

**Shu maqsadda kuyida axborot tizimini har bir qator belgilariga ko‘ra tasniflash variantlari ko‘rib chiqiladi :**

- avtomatlashtirish darajasi;
- boshqarish jarayonining turlari bo‘yicha;
- qo‘llanilish sohalari bo‘yicha;
- boshqarish ob’ektining ishlash sohasi bo‘yicha;
- qo‘llanilish yo‘nalishi bo‘yicha;
- boshqaruv tizimidagi darajasi bo‘yicha va hokazo.

Axborot tizimining tasnif belgilari ichida ularning qo‘llanish sohalari asosiy hisoblanadi.

**Axborot tizimlarini texnik tuzilishi bo‘yicha sinflanishi.**

Axborot tizimini tasavvur kiladigan bulsak, unda texnik vositalar va dasturiy ta’minotlar majmui ekanligi namoyon buladi, va ular foydalanuvchilarga va texnik ob’ektlarga xizmat ko’rsatishi lozim buladi.

**Texnik vositalarga quyidagi kiradi:**

- kiritish kurilmalari;
- ma’lumotlarni [saqlash kurilmalari](#);
- ma’lumotlarni chiqarish kurilmalari;
- ma’lumotlarni qayta ishlash kurilmalari;
- hisoblash mashinalari;
- kommunikatsiya kurilmalari va b.;

Har kanday axborot tizimining asosida texnik vositalar turadi. Ularning ishlash tezligi va ishonchligi bevosita axborot tizimining samaradorligini ta’minlaydi.

Birmashinali birprotessorli Axborot tizimi. Eng keng tarkalgan axborot tizimi bu yagona hisoblash mashinasi negizida bulib, u ham uz navbatida bitta protsessordan iborat buladi. Bu borada [juda katta tajriba tuplangan](#), shu bois bunday axborot tizimlarini yaratish va ular uchun dasturiy ta’minotni tuzish muammo tugdirmaydi. Ammo bunday axborot tizimlari samaradorligi xozirgi kunda hammani ham koniktirmayapti.

Hisoblash majmuisiga asoslangan Axborot tizimi. Hisoblash majmuisi bir necha protsessordan iborat bulib, u yagona tashki kurilmalardan va umumlashtirilgan yoki taksimlangan tezkor xotiradan iborat buladi.

Shuni takidlash lozimki, xozirli zamonaviy tizimlar orasida klasterli tizimlar tez rivojlanib ketdi.

Agar taksimlangan xotira bevosita alohida kompyuter va operatsion tizim bilan ta’minlangan bulsa, bu klasterli (clusters) tizim hisoblanadi.

Klasterlarda har bir blok boshqalari bilan aloka kanallari orkali boglanadi, undagi tezlik kamida 10 Gbit/sek bo’ladi.

**Afzalliklari**

- oddiylik va arzonligi. Masalan, oddiy kompyuterlarni aloka kanali orkali, masalan Ethernet orkali birlashtirib klaster yaratish mumkin.

- ma'lumotlar almashuvi past bo'lgan masalalarni samarali yechish. Har bir kompyuterning tulik bandligini ta'minlaydi, chunki operativ xotirani bushashini kutib utirmaydi.
  - katta xajmdagi operativ xotira talab qiladi gan masalalarni yechish imkonи mavjud.
  - Umumiy xotira xajmini «cheksiz» oshirish imkonи mavjud. Fakatgina masalani kichik mustakil masalalarga bulaklash talab etiladi.
  - masshtablashtirish imkonи. Istalgancha hisoblash mashinalarini qo'shish imkonи mavjud va bunda tizimni narxi undagi mashinalar soniga proporsional bo'ladi. Shu bois ham dunyoda yaratiladigan superkompyuterlar tizimi negizida klasterlar turibdi. Kamchiliklari.
    - ma'lumotlar almashuvi muammosi. Hisoblash tizimiga nisbatan aloka kanallarining tezligi past . shu bois uzluksiz axborot almashuvi bilan boglik bo'lgan masalalarni yechish samarasiz hisoblanadi.
    - dasturlashtirish muammosi. Dasturlovchi yaratadigan dasturda ma'lumotlar almashuvini bevosita ushbu dasturning uzida amalga oshirishi kerak. Bu yerda kuyilgan xatolik tizimni osilib kolishiga olib kelishi mumkin. Masalan ikkita protsessor bir-biridan ma'lumot kutib koli shorkali.
    - kup energiya talabchanligi va tizimning kattaligi. Ya'ni klasterli tizimlar katta binolar talab qiladi vash u bois ham kup mikdorda energiyani talab qiladi . Axborot-hisoblash tarmoqlari. Axborot-hisoblash tarmoqlari jixozlarining tarkibi ko'rib chiqamiz.

#### **Tuzilish jihatdan AHT o'z ichiga quyidagilarni oladi:**

- tarmoq uzellariga joylashtirilgan kompyuterlar (ishchi staniiyalari va serverlar);
- ma'lumotlarni uzatish [apparaturasi va kanallari](#), ular bilan birga bo'lgan periferiya qurilmalari bilan;
  - interfeys platalarini va qurilmalari (tarmoqli platalar, modemlar);
  - marshrutlovchilar va kommutaciya qurilmalari.



Columbia superkompyuteri, 10240 ta protsessordan iborat.

Tarmoqlarda, foydalanuvchilar bilan aloqa qilish uchun hududiy qurilmalar bilan jihozlangan yoki axborotlarni kommutaciya va marshrutlash vazifalarini bajaruvchi bitta foydalanuvchili mini va mikroEHM lar (shu jumladan shaxsiy kompyuterlar ham), quvvatli ko'p foydalanuvchili EHM lar (mini-EHM katta EHM lar) ham ishlatalishi mumkin. Oxirgisi ma'lumotlarni samarali qayta ishlashni bajaradi va tarmoqdan foydalanuvchilarni turli-tuman axborot-hisoblash resurslari bilan masofadan ta'minlaydi, ya'ni serverlarning va quvvatli ishchi stanciyalarining vazifalarini amalga oshiradi.

EHM ning axborotlarni uzatish apparaturasi va videoterminal qurilmalari bilan tutashtirish qurilmasi sifatida quyidagilar ishlataladi:

**Chiziqli adapterlar — bu bir kanalli tutashtirish qurilmasi bo'lib, ular odatda, apparat yo'li bilan quyidagilarni bajaradi:**

1. yelektr signallarning shakllarini [va amplitudasini moslashtirish](#);
2. ma'lumotlarning ketma-ket hamda parallel va o'nga teskari holda o'zgartirish;
3. xizmatdagi sinxronlashtiruvchi signallarni kiritish, anglash va bartaraf yetish;
4. uzatilayotgan signallardagi xatoliklarni (signallarning shakli, amplitudasi va boshqa parametrlarining buzulishi) payqash.
  - Ma'lumotlarni uzatish multipleksorlari yoki oddiygina multipleksorlar — bu ko'p kanalli tutashtirish qurilmasidir (guruqli adapterlar). Ular adapterlar bajaradigan vazifalardan tashqari quyidagilarni ham amalga oshiradi:
    - EHM ga turli guruhdagi terminal qurilmalarini va ular bilan ishlashni galma-gal ulash;
    - EHM bilan uning ko'rsatmalari bo'yicha ma'lumotlar almashish;
    - ma'lumotlarni oraliqda yig'ish va yeslab qolish (buferlash);
    - ma'lumotlar formatlarini va kodlarini o'zgartirish;
    - xatoliklarni payqash, ba'zida yesa avtomatik to'g'rilashni ta'minlaydigan ma'lumotlarning [ishonchlilagini nazorat qilish](#);
    - tutashtirish apparaturasining ishga yaroqdigini nazorat qilish.

Multipleksorlar oddiy boshqarish qurilmalari, arifmetik va yeslab qoluvchi qurilmalar, interfeys bloklarini o'z ichiga oladi va ma'lumotlarni fizik va mantiqiy moslashtirish vazifalarini, ham apparatli (xususan, turli xil al oka kanallari bilan tutashtirish uchun turli xil chiziqli adapterlarni ishlatalish yo'li bilan), ham dasturli (dasturlashtiriladigan multipleksorlar) yo'l bilan bajaradilar.

**Axborot tizimini arxitekturasi bo'yicha qyuidagicha tasniflash qabul qilingan:**

- Lokal Axborot tizimi (tizimi tarkibi, masalan, ma'lumotlar bazasi, dasturlar bitta kompyuterda joylashgan bo'ladi);
- Taqsimlangan Axborot tizimi (tizimi tarkibi, masalan, ma'lumotlar bazasi, dasturlar bir necha kompyuterda joylashgan bo'ladi);

Taqsimlangan Axborot tizimi o‘z navbatida fayl-server va kliyent-serverlarga bo‘linadi.

### **Axborot tizimlarini axborot tavsifi bo‘yicha sinflanishi**

Axborotni qayta ishlash nuqtai nazar axborot tizimini quyidagicha tasniflash mumkin: -Axborotli-ma’lumotli, [axborot-qidiruv tizimlari](#), bunday tizimlarda axborotlar qidiriladi va ma’qul ko‘rinishda chiqariladi;

-Axborotlarni qayta ishlash tizimlari, bu yerda axborotlar murakkab algoritmlar asosida qayta ishlaniladi, masalan, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari.

### **Axborot tizimlarining masalaning tuzilishi bo‘yicha sinflari**

Bu yerda [quyidagi tasniflash keltirildi](#), umumiyo ko‘rinishda bu yerda axborot tizimining kengaytirilishi inobatga olinadi (masshtablash)

- *Shaxsiy axborot tizimi*, bir kishiga mo‘ljallangan axborot tizimi.
- *Guruuhlangan axborot tizimi*, korxona bo‘limi xodimlari axborotlardan birgalikda foydalanishadi.
- *Tashkilot axborot tizimi*, korxona doirasida axborot jarayonini to‘liq qoplagan bo‘lib, ularni to‘liqliqini va ularni barchaga etkazib berish imkoniga ega bo‘ladi.

### **Axborot tizimlarini avtomatlashtirish darajasi bo‘yicha sinflanishi.**


Avtomatlashtirish darajasiga ko‘ra [avtomatlashtirilgan](#), avtomatik va avtomatlashtirilmagan (an‘anaviy) boshqarish tizimlari o‘zaro farqlanadi.

Avtomatlashtirilgan tizimlar kishilar bo‘g‘inini (operatorlar, ma’muriy apparat) uzining organik tarkibiy qismiga kiritadi. Avtomatik tizimlar esa yig‘ish va sozlashdan so‘ng inson ishtirokisiz (proflaktik nazorat va ta‘mirlashni hisobga olmasa) prinsip jihatdan ishlashi mumkin va ularni ko‘proq texnolo-giyalarni boshqarishda qo‘llashadi, garchi bu o‘rinda avtomatlashtirilgan tizimlar afzal ko‘rilsa ham. Tashkiliy boshqaruv tizimlariga kelganda, ular bu spesifikasidan kelib chikib avtomatik bo‘lmaydi. Odamlar bu tizimlarda quyidagi asosiy vazifalarni hal etadi: birinchidan, bu boshqarish maqsadlari va mezonlarining qo‘yilishi va tuzatib borilishidir (ular sharoit o‘zgarganda o‘zgar-tirib boriladi), ikkinchidan, qo‘yilgan maqsadlarga erishishning eng yaxshi yo‘llarini izlab topishda ijodiy elementlarni kiritish (qo‘llanayotgan texnologiya yoki tashkiliy ishni keskin o‘zgartirish), uchinchidan, ishlab chiqilayotgan qarorlar tizimini tugal tanlash va ularga yuridik kuch berish. Nihoyat, to‘rtinchi vazifa bo‘lishi mumkin, bu tizimni boshlangach axborot bilan ta‘minlashki, uni to‘plashni to‘liq avtomatlash mumkin emas yoki noratsional hisoblanadi (masalan, kadrlarni hisobga olish ma’lumotlari, ish joyining o‘zgarishi ahvoli va hokazolar).

Avtomatlashtirilmagan ATida axborotlar texnika vositasiz xodimlar tomonidan bajariladi.

Avtomatik ATida barcha axborot jarayonlari xodimlarsiz amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirilgan axborot tizimi (AAT) – bu ma’lumotlar [jamlanmasi](#), iqtisodiy matematik usullar va modellar, texnikaviy, dasturiy, texnologik vositalar va mutaxassislar bo‘lib ma’lumotlarni qayta ishlash va qaror qabul qilish uchun mo‘ljallangan. AATning tasnifi quyidagicha qabul qilingan:



### Nazorat savollari:

1. Axborot tizimlarini texnik tuzilishi bo'yicha sinflanishi.
2. Texnik vositalarga qaysilar kiradi
3. Tuzilish jihatdan AHT o'z ichiga nimalarni oladi.
4. Chiziqli adapterlar — bu bir kanalli tutashtirish qurilmasi bo'lib, ular odatda, apparat yo'li bilan nimalarni bajaradi.
5. Axborot tizimlarini axborot tavsifi bo'yicha sinflanishi qanday.
6. Axborot tizimlarining masalaning tuzilishi bo'yicha sinflari qanday.
7. Axborot tizimlarini avtomatlashtirish darjasи bo'yicha sinflanishi.

## Amaliy mashg'ulot № 12.

**Mavzu:** SAP va BILLING tizimlarining rivojlanish tendensiyalari, mobil platformalarga asoslangan interatsiyalashgan tizimlari.

**Ishning maqsadi:** SAP va BILLING tizimlarini o'rghanish, mobil platformasiga integrallashuv ko'nikmalari.

### **Topshiriq:**

1. SAP tizimi.
2. SAP tizimi kelib chiqishi va rivojlanishi.
3. SAP tizimi texnik ta'rif.
4. SAP tizimi tuzilishi.
5. Mini SAP.
6. SAP IDES.
7. BILLING tizimi.
8. Billing tizimining funksional vazifalari.
9. «TBilling» telefoniya yagona billing tizimining asosiy funksiyalari.
10. «TBilling» tizimi bilan ishslashning axborot modeli.

### **Nazariy qism:**

#### **SAP tizimi**

Bir necha yillar davomida avtomatlashtirish va hisoblash jarayonlari tijorat, moliya, ta'lif va sanoat bozorlariga yetganda; ular ish jarayonlarini soddallashtira boshladilar. Amallar tezroq amalga oshiriladi va ma'muriy qiyinchiliklar va muammolarga javob tezroq bo'ladi.

Bugungi kunda har qanday tashkilotning rivojlanishi va faoliyatini takomillashtirishga yordam beradigan turli xil avtomatlashtirilgan tashkil etish tizimlari va ish uslublari mavjud. Kichik kompaniyalar tomonidan yirik korporatsiyalarga qo'llaniladigan eng muhimlardan biri bu SAP tizimi.

U tashkilot ichidagi ma'muriy jarayonlar tashkil etiladigan, boshqariladigan va optimallashtirilgan dastur yoki tizim dasturiy ta'minotidan iborat. Boshqa tizimlardan farqi shundaki, uni o'rnatish juda oson va jarayonlar tez va oson tushuniladi.

#### **Kelib chiqishi va rivojlanishi**

Uni Germaniyada SAPSE kompaniyasi 70-yillar davomida amalga oshirish maqsadida yaratgan ilovalar biznes jarayonlariga amaliyat. SAP qisqartmasi "Tizimlar, ilovalar va jarayonlar" degan ma'noni anglatadi, ammo nemis tilida SADP deb tarjima qilinadi, "Ma'lumotlarni qayta ishslashda tizimlar dasturlari mahsulotlari".

Yaratilishidan beri u amalga oshirdi Dasturlar kompaniyalarning turli ishlab chiqarish va ma'muriy tuzilmalariga moslashtirilgan ish uslublarida tashkil etish. Ular ushbu sohada kashshof bo'lgan va boshqa firmalar buni shunga o'xshash dasturlarni amalga oshirish uchun mos yozuvlar sifatida qabul qilishgan.

Jarayonlar, avtomatlashtirilgan usullar va texnologiyalar bozorining 60 foizida ushbu dasturlar hukmronlik qilmoqda. Dunyo bo'ylab millionlab

kompaniyalarda protseduralar va jarayonlarni soddalashtirishni amalga oshirish uchun nima yaratdi.

### **Texnik ta'rif**

SAP tizimi ERP (Enterprise Resource Planning) sifatida qaraladi, bu bizning tilimizda Enterprise Resource Planning System degan ma'noni anglatadi. Biroq, SAP tizimi bundan ham ko'proq; resurslarni, rejalarini va maqsadlarni samarali boshqarish uchun o'zaro bog'liqlik harakatlariga imkon beradigan har qanday tashkilot tarkibidagi turli sohalarni birlashtiradi.

The SAP tizimlari ular har qanday turdag'i ma'lumotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan. Ular tarmoq jarayonlari va ba'zi bir kompyuterlarni qayta ishlash usullaridan foydalangan holda turli xil ish birliklaridan ma'lumot va tarkibni birlashtirishga imkon beradi.

### **Tuzilishi**

Ushbu mukammal dastur har qanday kompaniyada eng ishonchli biri bo'lishiga imkon beradigan ikkita muhim elementga ega. Birinchisi, samarali serverga ega bo'lish, bu erda hamma ma'lumotlar bazasi va mijozga tashkilotni optimallashtirish uchun kerak bo'lgan hamma narsani taklif qilishga imkon beradi.

Ikkinchidan, bu dasturda SAP tizimga kirish sifatida namoyish etiladigan buyurtmachi, bu holda tashkilot. Bu kompaniyaning shaxsiy kompyuterida o'rnatilgan, unga tegishli ma'lumotlarga ega bo'lishga imkon beruvchi kichik prizma.

Biz sizni qanday o'qish haqida o'qishni davom ettirishga taklif qilamiz mahoratingizni oshiring mashhur o'yinda Sims, havolani kirititing va sizda barcha ma'lumotlar bo'ladi, shuning uchun buni amalga oshirishingiz mumkin to'g'ri yo'l.



Ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan ushu tizim tashkilot ichidagi jarayonlar va resurslarni boshqarish bilan bog'liq ma'lumotlarni taqdim etish uchun ishlab chiqilgan. Tizim platformaga va atrof-muhitga kiritilgan, kompaniya uchun kerakli ma'lumotlarni ishlab chiqaradigan ma'lumotlarni kiritishni talab qiladi.

Ushbu ma'lumotlarning ishlab chiqarilishi oldindan tuzilgan bo'lib, u erda kompaniyaning shakllari va xususiyatlari o'rnatiladi. Natijada tashkilotga xizmat qiladigan hisobotlar va jarayonlarni taklif qilish, muhim qarorlarni qabul qilish, shuningdek vaziyat va holatni oshkor qilish imkoniyati mavjud.

Tizim ulkan ma'lumot oqimlari bilan shug'ullanadigan yirik korporatsiyalar uchun juda yaxshi. SAP tizimi har qanday hajmdagi ma'lumotni, hajmidan qat'i nazar, qayta ishlaydi, shuning uchun uning katta qarshiligi, bu esa uni kompaniyalar tomonidan eng ko'p qidiriladigan biznes dasturlaridan biriga aylantirdi.

## Narxlar

Ushbu tizim o'rnatish, boshqarish va texnik xizmat ko'rsatish uchun narxlanadi. Tarmoqning hech bir joyida u bepul mavjud bo'lmaydi; U xususiy kompaniyalar tomonidan tayyorlanadi va ayniqsa o'z faoliyatida o'sish va optimallashtirishga erishmoqchi bo'lgan korporatsiyalarga qaratilgan.

Qo'llaniladigan usullar turli sohalar bo'yicha mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ularni amalga oshirish uchun xarajatlarni keltirib chiqaradigan dasturlarni ishlab chiqaradi, tizimga texnik xizmat ko'rsatish yoki yangilash zarur bo'lganda professional to'lovlar qo'shiladi; shuning uchun ushbu xususiyatlarga ega bo'lgan mahsulotni bepul taqdim etish mumkin emas.

## MiniSAP

Shuni eslatib o'tish muhimdir **SAP tizimi** Bu shaxsiy dastur emas, balki biznes dasturdir, shuning uchun uni shaxsiy kompyuterlarda yoki xususiy kichik korxonalarda ishlatish tavsiya etilmaydi.

Biroq, SAP dasturiy tilini (ABAP) o'rganishni va amalda ishlatishni istaydigan texnik profilga ega bo'lgan odamlarga qo'llanilishi uchun firma tomonidan ishlab chiqilgan MiniSAP deb nomlangan variant mavjud; Bu kichik biznes uchun dastur emas, balki dasturlashni o'rgatadigan dasturdir.

MiniSAP-da har qanday vakolatli platformadan bepul yuklab olish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, bu SAP-dan foydalanishni o'rganish uchun dastur emas, faqat SAP dasturlarini tushunish va rivojlantirish, shuningdek, ABAP dasturlash tilida mashq qilish.

## SAP IDES

Bundan tashqari, asosiy SAP tizimiga tegishli paket bo'lgan, ilgari kompaniya tomonidan tuzilgan va tizimning tashkilotda qanday ishlashini ko'rsatishga xizmat qiladigan bir qator modullarni o'z ichiga olgan SAP IDES deb nomlangan narsa mavjud.

**SAP IDES** - bu xayoliy kompaniyada amalga oshiriladigan jarayonlar tavsiflangan qo'llanma. Bu kelajakda mahsulotni sotib olishni istagan va faqat tizim qanday ishlashini ko'rsatishni istagan potentsial mijozlarga qaratilgan.

## Xulosa

Umid qilamizki, ushbu maqolada keltirilgan ma'lumotlar SAP tizimi tomonidan taqdim etilgan atrof-muhit bilan bog'liq jihatlarni tushunishga xizmat qildi; Agar siz ushbu dasturiy ta'minotni o'zingizning kompaniyangizga tatbiq etmoqchi bo'lsangiz, sizga biznesni boshlash uchun bizga taqdim etiladigan stipendiyalar uchun turli xil alternativalarni taklif qilishi mumkin bo'lgan rasmiy SAP veb-sayti bilan bevosita aloqada bo'lishingizni maslahat beramiz. Shuning uchun, siz xohlagan muvaffaqiyatga erishish uchun g'oyalar oqimiga yo'l qo'yishingiz kerak. Kech emas!

## Billing tizimi

Mamlakatimiz istiqlolining ilk yillaridayoq O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov: "Biz yaqin yillar davomida aloqa va telekommunikatsiya rivoji bo'yicha jahon standartlari darajasiga ko'tarilishimiz

*lozim. Rivojlangan kommunikatsiya tizimi bo‘lmasa, O‘zbekistonning kelajagi bo‘lmaydi. Biz buni aniq his qilishimiz lozim”, — deya ta’kidlagan edi.*

Shunga ko‘ra, mamlakatimizda kompyuter va axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya va ma’lumot uzatish tarmoqlarini, internet xizmatlarini rivojlantirish va zamonaviylashtirish, ularni jahon standartlari darajasiga yetkazish maqsadida keng ko‘lamli islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlandi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 30-iyundagi «O‘zbektelekom» aksiyadorlik kompaniyasi (AK) faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi 253-sonli qaroriga muvofiq «O‘zbektelekom» aksiyadorlik jamiyati tashkil etildi va uning vazifalari belgilab berildi.

Shuningdek, mobil aloqa bozorida milliy kompaniyalarning keng ishtiroki uchun zarur sharoitlarni yaratish hamda mamlakatning ko‘chma mobil aloqa tarmoqlarini yanada rivojlantirish, axborot xavfsizligini ta’minalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2014-yil 12-fevraldagi «Mobil aloqa milliy operatori faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-2126-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur me’yoriy hujjalarning ijrosini ta’minalash maqsadida, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalangan holda «O‘zbektelekom» AK filiallari uchun korporativ dasturiy ta’mimat (ya’ni «TBilling» tizimi) ishlab chiqildi.

«O‘zbektelekom» AK «Billing Telekom» filialida faoliyat ko‘rsatayotgan «TBilling» — telefoniya xizmatlari yagona billing tizimining asosiy maqsadi zamonaviy ishonchli va xavfsiz ma’lumotlar axborot bazasini yaratish, axborot resurslari va xizmatlari bozorini rivojlantirish, kompaniya bo‘linmalarida axborot almashishning elektron shakliga bosqichma-bosqich o‘tishni ta’minalash, xizmat ko‘rsatishning yagona korporativ tizimini yuritish, aholiga ko‘rsatilayotgan telefoniya xizmatlari uchun to‘lovlarini real vaqtarda ko‘rish, abonentlarga to‘lov uchun hisob-varaqalarini chiqarishdan iborat.

### **Billing tizimining funksional vazifalari asosan 3 turga bo‘linadi:**

- 1) Hisob-kitob jarayonida bajariladigan vazifalar.
- 2) Axborot xizmatlari.
- 3) Moliyaviy xizmat ko‘rsatish.

Hisob-kitob jarayonida bajariladigan vazifalarga — xizmatlarni aniqlash — qo‘ng‘iroqlar haqida batafsil ma’lumot olish, kommutatsion uskuna orqali olingan trafikdan foydalinish to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ishlov berish, iste’molni baholash — iste’mol haqidagi hisob-kitob xususiyatlarini aniqlash, abonentlar uchun to‘lovlarini shakllantirish, tuzatishlar, to‘lov varaqalarini taqdim etish, yetkazib berish yoki abonentlarni to‘lov varaqalari bilan tanishtirishni ta’minalash, abonentlarning shaxsiy hisob-raqamlarini boshqarish kabi vazifalar kiradi.


Axborot xizmatlari esa — abonentlar haqidagi operativ ma’lumotlarni qo‘llab-quvvatlash, shaxsiy hisob-kitob haqidagi ma’lumotlarni abonentlarga taqdim etish, abonentlarga xabar berish, abonentlar holati va xizmatlarini boshqarishdan iboratdir. Moliyaviy xizmat ko‘rsatish — bu to‘lovlarini qayta ishslash, abonentlarning debitorlik qarzlarini undirish va jarayonlarni boshqarishdan

iborat. «TBilling» telefoniya yagona billing tizimining asosiy funksiyalariga quyidagilar kirdi:


- «O'zbektelekom» AK filiallari va korxonalari abonentlarining yagona ma'lumotlar bazasini yuritish;
- Yagona me'yoriy-ma'lumotlar bazasini yuritish;
- Kommutatsiya qurilmalari orqali ko'rsatilayotgan barcha xizmatlar bo'yicha boshlang'ich ma'lumotlarni tezkor qayta ishlash, ya'ni mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon aloqasi bo'yicha abonentlarning talablariga binoan so'ralgan hisob-kitob davri uchun to'lov varaqalarini shakllantirish va ularni abonentlarga taqdim etish;
- Markazlashtirilgan holda abonentlarga barcha xizmatlar (abonent to'lovi, davriy to'lov, mahalliy, shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlari, axborot-ma'lumotnomalarini va qo'shimcha xizmatlarni taqdim etish) bo'yicha to'lov hujjatlarini shakllantirish va taqdim etish;
- Barcha hisob va to'lovlari bo'yicha abonentlarga ma'lumot berish;
- Tahliliy, statistik va moliyaviy hisobotlarni tezkor shakllantirish hamda filial va korxonalarga yetkazish;
- Ma'lumotlardan ruxsatsiz foydalanishning oldini olish, ma'lumotlar bazasini himoyalashning yuqori darajali uslublaridan foydalanish;
- «O'zbektelekom» AK tarmog'iga kirish imkoniyati bo'lgan respublikamizning istalgan hududidagi telekomunikatsiya xizmatlaridan foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish.

«TBilling» tizimidan foydalanish uchun quyidagi URL-manziliga murojaat qilinadi:

<http://uzonline.uzbilling.uz:88/billing>



*Tizim uch tillik bo'lib o'zbek, rus va ingliz tillarida ishlaydi*  
«TBilling» tizimi bilan ishlashning axborot modelini ko'rib chiqaylik:



### *«TBilling» tizimi bilan ishlashning axborot modeli*

1) Boshqaruv samaradorligini oshirish va hisobotlarni o‘z vaqtida sifatli olishni takomillashtirish maqsadida yaratilgan mazkur tizimdan korporativ tarmoq orqali barcha filiallar foydalanadi. Tizim «O‘zbektelekom» AK filiallari va korxonalarining sotuv ofislarida, abonentlar bilan ishlash bo‘limlarida, hisob-kitob bo‘limlarida foydalanishga mo‘ljallangan bo‘lib, tizimdan kassirlar, texnik hisob olib boruvchi guruhi, texnologlar va boshqalar foydalanishlari mumkin.

2) Abonentlar — operatorlar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki «Call-sentr» xizmati orqali bog‘lanadi.

3) Har bir filiallarda faoliyat ko‘rsatayotgan operatorlar o‘sha hududda istiqomad qiluvchi abonentlarga xizmat ko‘rsatadi. Xizmat ko‘rsatish jarayoni bevosita «TBilling» tizimi orqali bajariladi.

4) Barcha filiallar korporativ tarmoq orqali «TBilling» tizimidan foydalanishi esa yagona axborot fazosini tashkil qilishini ta’minlaydi.

5) Natijada, yagona ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lib, mazkur ma’lumotlar bazasidan olingan hisobotlar «O‘zbektelekom» AKga taqdim etiladi.

Xulosa qilib, ta’kidlash lozimki, abonentlarga xizmat ko‘rsatishning yagona korporativ tizimini yuritish, ma’lumotlarni jamlash va uzatish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biri bo‘lib, bunda aholiga ko‘rsatayotgan telefoniyasi xizmatlari uchun to‘lovlarni ko‘rish imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, «O‘zbektelekom» AK «TBilling» tizimidagi hisobotlar yordamida telefoniyasi xizmatlari to‘g‘risidagi barcha zaruriy ma’lumotlarni olishi, filiallar va korxonalarining sotuv ofislarini, abonentlar bilan ishlash bo‘limlari, hisob-kitob bo‘limlari bilan masofaviy ishlash, ma’lumotlar almashish, boshqarish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

### **Nazorat savollari**

1. SAP tizimi.
2. SAP tizimi kelib chiqishi va rivojlanishi.
3. SAP tizimi texnik ta’rif.
4. SAP tizimi tuzilishi.
5. Mini SAP.
6. SAP IDES.
7. BILLING tizimi.
8. Billing tizimining funksional vazifalari.
9. «TBilling» telefoniyasi yagona billing tizimining asosiy funksiyalari.
10. «TBilling» tizimi bilan ishlashning axborot modeli.

## Amaliy mashg'ulot № 13

### Mavzu: Tarmoq axborot texnologiyalari.

*Ishning maqsadi: Ishning maqsadi. Tarmoqli texnologiyalari va Internet xizmatlari. Kompyuter tarmoqlarining tushunchasi va turlari bilan tanishish*

#### **Ishning vazifasi:**

1. Lokal kompyuter tarmog'i bilan ishlash.
2. Mintaqaviy kompyuter tarmog'i bilan ishlash.
3. Global kompyuter tarmog'i bilan ishlash.

#### **Nazariy qism:**

##### **Internet tarixi**

Internet bu XX asrda kashf etilgan telekommunitsion va kompyuter tarmoqlar majmuidir. Uning tarixi 1960 yillaridagi Karib majorasidan so`ng, AQSHning ilmiy markazlaridan biri bo`lgan **RAND CORPARATION** korxonasi birinchi marta butun mamlakatni qamrab oladigan markazlashmangan kompyuter tarmog'ini yaratishni taqlif qilgandan boshlanadi. Bu loyihani amalaga oshirishdan Maqsad harbiy muassasalar, ilmiy va o'quv markazlari kompyuterlarni bir Aloqaqa birlashtirib, boshqarishni markazlashtirish edi. Maqsad yadro quroli xujumiga ham, Aloqaning bir necha qismi ishdan chikkan holda ham ishlash faoliyatini saqlab qoladigan tizimni yaratish edi. Bunday tizimni tarmoqlar soni ko'p bo'lgandagina amalga oshirish mumkin edi. Shunday qilib Internetga asos solindi.

1957 yil ARPA (Advanced Research Projects Agency) tashkiloti to`zildi. 60-yillar oxirida DARPA (Defense Advanced Research Project Agency) ARPANet tajriba tarmo\ini tashkil etish shaqida qaror qabul qildi. Ilk bor Aloqa 1972 yilda namoyish etildi. U 40 ta kompyuterdan iborat blib, asosiy to`zilish printsipi Aloqadagi barcha kompyuterlarning teng shuquqli blishi edi. 1975 yil ARPANet tajriba tarmo\i maqomini sharakatdagi (amaliy) Aloqa maqomiga zgartirdi.

80-yillar boshida Aloqada mashinalarning zaro ta'sir protokollari standartlashtirildi. Boshlang'ich variant TCP/IP (Transfer Control Protocol/Internet Protocol). BBN kompaniyasi bilan shartnomma to`zildi, bu esa TCP/IPni UNIX OT safiga kiritdi. 1983-yilda **ARPANET-INTERNET** deb atala boshlandi va juda kuchli, bir-biri bilan bog'langan kompyuterlar va tarmoqlar to'plamidan iborat tizimsiga aylandi.

1980-yillar INTERNETning keskin o'sish davri bo'ldi. Kompyuterlarning markazlashmagan boshqarish tarmog'i bilan bog'lanish sxemasi butun dunyoga tarqaldi va chet el garmoqlari tashkilotchilari AQSH tarmog'iga ulanishga rozi bo`lishdi. INTERNET ning butun dunyoni qamrab olishi quyidagi Tarmoqlarning qo'shilishi hisobiga bo'ldi. **NSFNET** - AQSHning ilmiy-tadqiqot institutlarini, korporatsiya va hukumat idoralarini birlashtiruvchi tarmog. (1980 yil) **EUNET** (Europe Union Network) - Yevropaning UNIX operatsion sitemasida va UUCP

hamda TCP/IP da ishlaydigan mashinalari tarmog'i. Markazi Amsterdam shahrida. (1982 yil) **EARN** (European Academic Research Network)- Yevropaning o'quv, ilmiy-tekshirish va tadqiqot muassasalarining tarmog'i (1983 yil) **JUNET** - Yaponianing UNIX mashinalari tarmog'i (1984 yil) **JANET** - Buyo'q Britaniyaning birlashgan akademik tarmog'i (1984 yil)

Shulardan **NSFNETни** - *Internet Backbone* yoki "internetning asosi" deb atashadi. Tashkil etilgan vaqtida 1980 yilda u 56 Kbit-s tezligida axborot o`zata olish qobiliyatiga ega edi. 1988 yilda esa unin tezligi 1,544 Mbit-s oshdi. 1991-yili NSFNET tarmog'i takomillashtirildi va uzatish tezligi 44.736 Mbit-s ga yetdi.

Internetga ulangan kompyuterlar soni 1987 yilda 10 000 bo'lsa, 1989 yilda 100 000 taga yetdi, 1995 yilda esa 6,5 million deb hisoblangan. Hozirgi kunda esa dunyoning 150 dan ortiq mamlakatida 100 milionlab kompyuterlar Internetga ulangan bo'lib, har oyda Aloqa abonentlar mikdori 7-10% ortib bormoqda. Internet dagi kompyuterlar aksariyati AQSH da joylashgan.

Internet ning 90-yillardagi rivojlanishiga asosiy sabab World Wide Web (Butun Dunyo garmog'i) ning to'zilishi bo'ldi. Uni birinchi nusxasini 1990 yilining noyabrida **CERN** (Yevropa atomni tekshirish markazi) xodimi Tim Berns-Li yaratdi, lekin 1992 yilgachi ishga tushirilmadi. 1993 yilda **NCSA** (National Center for Supercomputer Applications, Superkompyuterli Hisoblash Milliy Markazi) tomonidan **Mosaic** dastursi ishlab chikarildi va shu yil oxiriga 200 ta WWW server ishga tushirilib WWW bo'yicha axborot okimi 1% ni tashkil qilgan.

### **Kompyuterdan foydalanish modellari**

Har bir shaxs uz uyida turib katta masofalarda joylashgan ma'lumotlarni olishi mumkin. Uzok masofalarda joylashgan ma'lumotlarni olishi mumkin. Komp'yuter tarmoqlari har-xil loyihalar bo'yicha tashkil etiladi. Barcha ko'rsatkichlardan quyidagi ikkitasi asosiy hisoblanadi:

1. Axborotlarni uzatish texnologiyasi.
2. Axborotlarni uzatish miqyosi, masshtabi

Hozirgi kunda ikkita ikki xil texnologiya qo'llanilmoqda.

1. Keng ko'lamli axborot uzatish texnologiyasi bu texnologiyaga server tomonidan uzatilgan axborot tarmog'idagi barcha kompyuter tomonidan qabul kilinishi mumkin.

2. Axborotlarni ikki nuqtali uzatish texnologiyasi (point-to-point) nuqtadan nuqtagacha bu texnologiyada faqat bir juft kompyuter xizmat qiladi.

Axborotlarni uzatish miqyosi bo'yicha kompyuter tarmoqlari bir nechta turlarga bulinadi.

<b>Protsessorlar</b>	<b>Protsessorlarning joylashishi</b>	<b>Nomlanishi</b>
----------------------	--	-------------------

<b>orasidagi masofa</b>		
0,1m	Ulanish chizigi	Ma'lumotlar oqimini qayta ishlaydigan mashina
10m	Katta xona	Maxalliy kompyuter
100m	Bino	Tarmoqlari
1000m	Kompus(compus)	LAN(Local Area Networks)
10km	Maxalliy kompyuter tarmoqlari	MAN(Metropoliten Area Networks)
100km	Viloyat kompyuter tarmoqlari	Wan(Wide Area Networks)
1000km		
10.000km	Dunyo miqyosidagi kompyuterlar	Internet (Internet Computer Networks) O'zaro bog'langan kompyuter Tarmoqlari

Kompyuter bu hisoblash ishlarni va mantiqiy karorlarni insonga nisbatan million va hattoki milliard marta tezrok bajara oladigan qurilmadir. Takkoslash uchun shuni aytish lozimki zamonaviy shaxsiy kompyuterlar 1-sekundda bajaradigan ishlarni kalkulyator 10-yil mobaynida bajaradi. Kompyuter barcha amallarni kompyuter uchun to'zilgan dasturlar deb ataluvchi ko'rsatmalar asosida bajaradi. Bu ko'rsatmalarni yani dasturlar kompyuter dasturchilari bajaradi. **Microsoft** firmasi dasturiy taminotni ishlab chiqdi. Kompyutering apparat qismi yoki manitor, printer, tizimli blok, skaner, modem, sichqoncha, audio-video kompyutering **Hardware** hard (qattiq) ware (buyum) qismi deyiladi. Kompyutering ishlayotgan dasturiy majmuasi esa kompterning dasturli taminoti deyiladi, va kompyutering Software soft (yumshoq) qismi deyiladi. Internetdan foydalanish **WWW (World Wide Web-** Jahon o'rgimchak to'ri) tizimidan foyalanish uchun yangi dasturlashtirish tillari yaratildi. Bu tillardan biri **Java**-dasturlashtirish tili 1995 yildan boshlab ishlatilmoqda.

### **Lokal kompyuter tarmog'i**

Xududiy taqsimlanishi jixatidan kompyuter tarmoqlarini uch guruhga ajratish mumkin.

1. Lokal tarmoqlar (**LAN–Local Area Network**), bir korxona, muassaning bir yoki bir nechta yaqin binolardagi ob'ektlarni boglaydi. Lokal Aloqadagi kompyuterlar orasidagi masofa uncha katta emas, agar radiokanal aloqasidan foydalansa 20 kmni tashkil qiladi.

Lokal tarmoqda kompyuterlarni birlashtiruvchi sim (kabel) sifatida kalin koaksil, ingichka koaksil, juft-juft qilib uralgan (toking Ring «vitaya para») optik tukima (tola) simlari ishlatalishi mumkin.

Kompyuter tarmog'i maxsus operatsion tizim boshqaruvida ishlaydi. Hozir ko'p ishlatilayotgan Windows-95 operatsion tizim tarkibida lokal Aloqada ishlash imkonini beruvchi dasturlar mavjud.

Lokal kompyuter tarmoqlari boshqa kompyuter tarmoqlari turlaridan quydagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

1. O`zining o'lchamlari;
2. Axborot almashish texnologiyasi bilan;
3. Topologiyasi (to`zilishi) bilan

Lokal kompyuter tarmog'inining o'lchamlari uncha katta bulmaganligi sababli, ular o'ziga xos dizayniga ega bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda ular bitta kabeldan tashkil topgan axborot tashish texnologiyasiga ega bo'ladi. Lokal kompyuter tarmog'inining axborot uzatish tezligi 10 Mb/sek dan 100 Mb/sekgacha bo'ladi.

Lokal kompyuter tarmog'inining topologiyasi ko'p hollarda quydagi ikki ko'rinishga ega bo'ladi: **to'g'ri Chiziqli** topologiya va **aylana** ko'rinishli topologiya. Bunday bir topologiyada istalgan kompyuter ishlab turgan bo'lishi mumkin, hozirgi ongda ishlab turgan, ya'ni Aloqaqa axborot jo'natayotgan kompyuter **Master** deyiladi.

Master ishini kolgan kompyuterlar kutib turadi. Shuning uchun 2 ta kompyuter bir vaqtning o'zida axborot jo'natish xollarini bartaraf etish rejimi statsionar va dinamik rejim bo'lishi mumkin. Axborot jo'natish mexanizimi markazlashtirilgan va markazlashtirilmagan bo'lishi mumkin. Har qanday kompyuter tarmog'idan foydalanishning shu tarmoqqa xos qoidalari, ya'ni **protokollari** ishlab chiqilgan.

## 2. Shahar miqyosidagi kompyuter tarmoqlari (**Metropolitian Area Networks MANs**).

Shahar miqyosidagi kompyuter tarmoqlari umuman olganda Lokal kompyuter tarmoqlariga o'xshash bo'lib, ishlash texnologiyasi deyarli bir xil.

Odatda MANlarga qo'shni ofislari birlashtiriladi. Yoki shahar miqyosidagi korxonalar ofislari birlashtiriladi. MANlar xususiy tarmoqlar bo'lishi mumkin. MANlarning alohida kategoriyalari bo'linishi sabab shundaki, ular uchun xalqaro standartlar ishlab chiqilgan. Bu standartning nomi **DQDB** (Distributed Queue Dual Bus)-tarkatilgan navbat ikkilangan kanal, magistral. DQDB –standarti bo'yicha kompyuterlarni tarmoqqa ulash sxemasi quydagicha bo'ladi. Bu sxema 2 ta bir xil magistrantdan iborat bo'lib, bularga tarmoqqa kiradigan kompyuterlar kiradi. Har bir magistral axborotlarni jo'natish qurilmasiga ega bo'ladi. Bu qurilma **head-end** (boshi-oxiri) deyiladi.

Har bir kompyuterdan bu kompyuter o`ng tomonga joylashgan kompyuterlarga axborot jo`natish uchun yuqori magistaldan foydalanishga to`g`ri keladi. Chap tomondagi kompyuterlarga ma`lumot yuborish uchun esa quyi magistraldan foydalanish kerak.

MANlarni asosiy xususiyati shundan iboratki, axborotlarni keng ko`lamda tarkatish imkoniyatlari bor, bu kompyuter tarmog`i o`ziga xos dizaynerga ega bo`ladi. MANlarni topologiyasi regulyar (to`g`ri) sxemada bo`ladi.

### **Global kompyuter tarmoqlari (Wide Area Networks, WANs )**

Texnologiyasi, miqyosi bilan kompyuter tarmoqlari bir–biri bilan farq qiladi. Odatda keng zonali kompyuter tarmoqlari bir kichikroq mamlakat, yoki kichikroq kit`a miqyosida ishlataladi.

WANlar foydalanuvchilar masalalarini yechishga mo`ljallangan kompyuterlar kollektsiyasidan tashkil topadi. Kelgisida bu kompyuterlarni asosiy kompyuterlar yoki (host computers) **host** deb yuritamiz.

**WAN** larda host (asosiy) kompyuterlar bir-biri bilan kommunikatsiya tizim osti deb ataluvchi tizim osti bilan ulanadi. Kompyuter tarmog`ining kommunikatsiya tizim osti **subnet** deb ataladi.

**Subnetning** asosiy vazivasi–tarmoqdagi asosiy kompyuterlar orasida aloqa o`rnatishdan, ya`ni tarmoqdagi bir kompyuterdan ikkinchi asosiy kompyuter axborot uzatishdan iboratdir. Keng zonali kompyuter tarmoqlarida–WANlarda quydagi ikkita tushunchani ajratib takidlab o`tamiz.

1. Aloqa tarmoqlari (Subnet)
2. Tarmoqning amaliy masalalarini yechishda qo`llaniladigan qismi, ya`ni host (asosiy) kompyuterlar.

Bu 2 ta tushunchani bir-biridan ajratish WANlarni loyxalashni, ya`ni ularni dizaynnini soddalashtirish imkoniyatini beradi. Ko`p hollarda komutatsiya yoki aloqa Subneti quydagi 2 ta har xil kompyuterlardan iborat bo`ladi:

1. Uzatish tarmoqlari (liniya peredachi)
2. Boshqa aloqa tarmog`iga ularash elementlari.

Uzatish tarmoqlarining vazifasi aloqa axborotlarini uzatish, ya`ni bitlarni uzatishdan iborat).

Axborotlarni bitta asosiy kompyuterdan boshqa asosiy kompyuterlarga uzatiladi. Bu alohida aloqa tarmog`ining vazifasi. Bitta aloqa tarmog`ini boshqa aloqa tarmog`i bilan ulaydigan elementlarning vazifalari bir aloqa tarmog`ini boshqa aloqa tarmog`i bilan ularashdan iboratdir. Bu vazifani, ya`ni bir tarmoqni ikkinchi tarmoq bilan ularash vazifasini maxsus moslashtirilgan kompyuterlar bajaradi. Tarmoqlarni ularash elementiga kiruvchi tarmoqdan axborot kelganda ularash elementi kelgan axborotni jo`natish uchun chiqish tarmog`ini tanlashi kerak. Tarmoqlarni ulaydigan kompyuterlarni **router** deb qabul kilamiz.

Router – yo'naltiruvchi, marshrutizator degan ma'noni bildiradi.

Lekin asosiy kompyuterlar har doim LANlarga ulangan bo'lishi shart emas. Agar bitta router dan jo'natilgan axborot, ikkinchi router yetib borishi uchun orada 2-3 ta routerlardan utsa, tabiyki, jo'natilgan axborot oralikdagi routerlarga kelib kiradi. Ma'lumki bu oralik routerda saqlanib turishi mumkin, keyin chiqish yuli bush bo'lganda jo'natiladi. Axborotni bir routerdan boshqaga yetib borish modeli 2 nuqtali model deyiladi (**Point to point**). Bu modelda axborot jo'natuvchi va axborot qabul qiluvchi bor.

Katta xajimga ega bulmagan axborotlar va o'zaro teng bo'lgan axborotlar adabiyotda **cellelar** deyiladi. Keng zonali kompyuter tarmog'ining WANlarni topologiyasi irregulyar (noto'g'ri) sxemada bo'ladi. **Internetda domenli adreslash**

Har bir IP adres bitta aniq Aloqa domenga murojaat qiladi. Domen - bu Aloqadagi nomma-nom xostlar guruhidir. Agar sizga kompyuter va domen nomi ma'lum bo'lsa, ularning manzilgohi haqida aniq tasavvurga ega bo'lasiz.

Nomlardagi domenlar bir-biridan nuqtalar orqali ajralib turadi. Nomda birinchi o'rinda IP adresli aniq kompyuter - ishchi mashinaning nomi turadi. Nomda har qanday sonli domenlar bo'lishi mumkin, ammo 5 dan yuqorisi kam uchraydi.

### Masalan:

ux.cso.uiuc.edu

nic.ddn.mil

yoyodyne.com

### Internetdagi mavzuli domenlar

Domen	Mavzu belgisi
com	Tijorat korxonalari
edu	quv muassasasi (masalan, universitet)
gov	Noharbiy hukumat muassasasi
mil	harbiy muassasalar
net	Aloqa tashkilotlar
org	Boshqa tashkilotlar

### Internetdagi geografik domenlar

Domen	Mamlakatlar
uz	O'zbekiston
au	Avstraliya
ca	Kanada
de	Germaniya
fr	Frantsiya
ip	Yaponiya
it	Italiya

ru \_\_\_\_\_ Rossiya  
 uk \_\_\_\_\_ Buyuk Britaniya  
 us \_\_\_\_\_ AQSH

### **Internetda mavjud bo'lgan xizmat turlari**

Internet butun dunyo kompyuterlar tarmoqlarining to'plamini belgilaydi va turli xil kompyuter xizmatlarini ko'rsatadi. Bu - **E-mail elektron pochta, Usenet telekonfirentsiyalari, FTP ma'lumot fayillarini uzatish tizimi, Telenet uzokdan terminalga kirish tizimi, Gopher tizimi va Butun Dunyo Tarmog'i-WWW**

Abonent tizimlarining xududiy joylashuviga qarab kompyuter tarmoqlarini uchta asosiy turkumga ajratish mumkin:

- Lokal tarmoqlar- (LAN– Local Area Network);
- Mintaqaviy tarmoqlar- (MAN– Metropolitan Area Network);
- Global tarmoqlar- (WAN– Wide Area Network);

**Lokal kompyuter tarmog'i** uncha katta bo'limgan xudud chegarasida joylashgan abonentlarni birlashtiradi. Masalan, korxonalar, tashkilotlar, firmalar, banklar, ofislar miqyosidagi komppyuterlarni o'zaro birlashtiruvchi tarmoqlar lokal kompyuter tarmog'i turkumiga kiradi. Hozirgi vaqtda lokal hisoblash tarmoqlari abonentlarining xududiy joylashuvi bo'yicha qat'iy cheklashlar yo'q.

**Mintaqaviy kompyuter tarmog'i** bir-biridan ancha uzoq masofada joylashgan komppyuterlarni va lokal kompyuter tarmoqlarini o'zaro bog'laydi. U katta shaxar, iqtisodiy mintaqa va alohida mamlakat doirasidagi abonentlarni o'z ichiga olishi mumkin. Odatta, mintaqaviy hisoblash tarmog'i abonentlari o'rtasida masofa o'nlab, yuzlab kilometrni tashkil etadi.

**Global kompyuter tarmoqlari** turli mamlakatlar yoki kit`alarda joylashgan abonentlarni birlashtiradi. Mazkur tarmoq abonentlar o'rzasidagi aloqa telefon, radio aloqa va kosmos aloqa tizimi negizida amalga oshiriladi.

### **Tarmoq miqyosi (o'ljam)**

<b>Masofa</b> <b>(Дистанция)</b>	<b>Joyi</b> <b>(Место)</b>	<b>Turi</b> <b>(Тип)</b>
<b>1 м</b>	<b>Plata</b>	<b>Kompyuter</b>
<b>10 м</b>	<b>Xona (Комната)</b>	<b>LAN</b>
<b>100 м</b>	<b>Bino (Здание)</b>	<b>LAN</b>

<b>1000 м</b>	<b>Qo'shni binolar (Кампус)</b>	<b>LAN</b>
<b>100000 м</b>	<b>Shahar (Город)</b>	<b>MAN</b>
<b>1000000 м</b>	<b>Qit'a (Континент)</b>	<b>MAN</b>
<b>10000000 м</b>	<b>Планета</b>	<b>WAN</b>

**Bosqarish usullari bo'yicha tarmoqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:**

“Mijoz – server” tarmoqlari (Клиент–сервер);

- **Mijoz**– bu tarmoqqa so'rovlar beruvchi (kompyuter yoki dastur) ob`ektdir. Yoki boshqacha aytganda **Mijoz**- bu tarmoqni abonenti bo'lib, faqat tarmoq resurslaridan foydalanadi, ya`ni tarmoq unga xizmat qiladi.
- **Server**–bu tarmoqqa xizmat ko'rsatuvchi (kompyuter yoki dastur) ob`ekt. Yoki boshqacha aytganda **Server**- bu tarmoqni abonenti bo'lib, boshqa abonentlarga o'zining resurslarini taqdim etadi, o'zi esa boshqa abonentlarni resurslaridan foydalanmaydi, ya`ni faqat tarmoqga xizmat qiladi.

“Peer-to Peer” (teng huquqli) tarmoqlar (одноранговые сети) bir rangli tarmoqlar, yani tarmoqdagi barcha kompyuterlar bir xil kirish va resurslar huquqiga ega.

### Axborotlarni uzatish tezligi

■ Ma`lumotlarni uzatishning **kichik tezligi**– bunda ma`lumotlarni uzatish tezligi 10 dan 100 gacha **kilobit** bo'ladi;

■ Ma`lumotlarni uzatishning **o'rtacha tezligi**– bunda ma`lumotlarni uzatish tezligi, birdan bir necha o'nlab **megabit** diapazonda bo'ladi;

■ Ma`lumotlarni uzatishning **yuqori tezligi**– bunda ma`lumotlarni uzatish tezligi 100 dan yuqori **megabit** va **gegabit** diapazonda bo'ladi.

**Aloqa, ulanish topologiyasi bo'yicha kompyuter tarmoqlari quyidagicha bo'lish mumkin:**

- ❖ Umumi shina topologiyasi (Bus– Общая шина );
- ❖ Yulduz topologiyasi (Star– Звезда);
- ❖ Halqa topologiyasi (Ring– Кольцо);
- ❖ Daraxtsimon tuzulmali topologiya (Tree– Древовидной);
- ❖ Aralash tuzulmali topologiya (Mixed– Смешанной).

## “Umumiy shina” topologiyasi

Umumiy shina tarmoq tapologiyasi (bus- Общая шина) – bunda hamma kompyuterlar bir aloqa liniyasiga parallel ulanadi va har bir kompyuterdan axborot bir vaqtida hamma qolgan kompyuterlarga uzatiladi.



### Vositalar:

Kompyuter tarmoq platasi;

Kabel: Koaksial 10Base2;

Konnektor: BNC, T;

Terminator.

## “Yulduz” topologiyasi

**Yulduz topologiyasi (Star– Звезда)** – bunda bitta markaziy kompyuterga chetda qolgan kompyuterlar ulanadi, shu bilan birga har biri o‘zining alohida aloqa liniyalaridan foydalanadi.


### Vositalar:

Kompyuter tarmoq platasi;

Kabel: UTP 10BaseT;

Konnektor: RJ45;


Kommutator.



## “Halqa” topologiyasi


**Halqa topologiyasi (Ring– Кольцо)** – bunda har bir kompyuter axborotni har doim faqat bitta zanjirda kelayotgan kompyuterga uzatadi, axborotni esa faqat zanjirdagi oldinda kelayotgan kompyuterdan oladi va bu zanjir “halqa” bo‘lib birlashgan.

Barcha kompyuterlar ketma-ket xalqa bo‘ylab bir-biri bilan bog’lanadi.



### **Daraxtsimon tuzulmali topologiya**

Ushbu strukturada barcha kompyuterlar bir-biri bilan tarmoqlangan kanallar orqali bog'lanadi.



### **Kompyuter tarmog'ining texnik ta'minoti**

Kompyuter tarmog'ini tashkil qilish uchun albatta bir nechta tarmoqda ishlatiladigan texnik vositalardan foydalaniladi. Bu vositalar vazifalari har xil bo'lishi mumkin, lekin ularning ayrimlari tarmoqdagi axborot almashinuviga yordam bersa, ayrimlari axborot almashinuvi ishonchligini oshiradi, ayrimlari esa uzatish tezligi va masofasini oshiradi va hakozo.

Quyida bu texnik vositalar va ular xaqida ma'lumotlarni keltiramiz.

#### **Kompyuter tarmog'i qurilmali quyidagilari:**

- Aloqa kabellari- *Линия связи - Network cable*
- Tarmoq kartasi - *Сетевая карта- Network Card*
- Transiverlar - *Трансивер- Transceiver*
- Takrorlagichlar - *Повторитель- Repeater*
- Konsentratorlar - *Концентратор- Hub*
- Ko'priklar - *Мост - Bridge*

- Kommutatorlar - *Коммутатор*- *Switch*
- Mashrutlovchilar- *Маршрутизатор*- *Router*
- Tarmoq kartasi- *Network Card* - *Сетевая карта***

**Tarmoq kartalarini** turli adabiyotlarda yana kontroller, adapterlar, platalar, interfeyslar, NIC – *Network Interface Card* nomlar bilan ataydilar. Bu qurilmalar mahalliy tarmoqning asosiy qismi, ularsiz tarmoq hosil qilish mumkin emas. Tarmoq adapterlarining vazifasi – kompyuterni (yoki boshqa abonentni) tarmoq bilan ulash, yana qabul qilingan qoidalarga rioya qilgan xolda kompyuter bilan aloqa kanali o’rtasidagi axborot almashinuvini taminlashdir.



### **Transiverlar – *Трансивер* - *Transceiver***


**Transiverlar** yoki uzatish va qabul qilish qurilmalari, ular adapter bilan tarmoq kabeli o’rtasidagi axborotni uzatish uchun xizmat qiladilar yoki tarmoqning ikki qisimlari (segment) o’rtasidagi axborot uzatishni amalga oshiradilar. Transiver signalni kuchaytirish, signal qiymatlarini o’zgartirish yoki signal ko’rinishini o’zgartirish (masalan, elektr signalini yorug’lik signaliga va teskariga) ishlarini bajaradi. Ko’pincha adapter platasiga o’rnatilgan qabul qilish va uzatish qurilmasini transiver deb ham yuritiladi.



### **Takrorlagichlar – *Повторитель* – *Repeater***

*Repeaterlar* yoki takrorlagich qurilmasi transiverga nisbatan ancha oddiy vazifani bajaradi. U faqat susaygan signalni qayta tiklab avvalgi ya`ni uzatilgan vaqtidagi ko’rinishga (amplitudasi va ko’rinishini) keltiradi. Signalni qayta

tiklashning asosiy maqsadi, tarmoq uzunligini oshirishdan iborat. Repeaterlar va transiverlar hech qachon o'zidan o'tayotgan axborotga ishlov bermaydilar.



### **Konsentratorlar – Концентратор – Hub**

*Kontsentratordar* bir necha tarmoq qisimlarini birlashtirib bir butun tarmoq hosil qilishga xizmat qiladilar. Konsentratorlarni aktiv va passivga ajratish mumkin. Passiv kontsentratordar konstruktiv jixatidan bir necha repeaterlarni o'z tarkibiga olgan bo'ladi. Ular repeaterlar bajaradigan vazifalarini o'zini bajaradilar. Bunday kontsentratordarning aloxida olingan repeaterlarga nisbatan afzalligi hamma ulanish nuqtalari bir joyga yig'ilganligidir. Bu tarmoq tuzilishini o'zgartirishga qulaylik to'g'diradi, tarmoqni nazorat qilish va nosozliklarni topishni osonlashtiradi. Shuningdek hamma repeaterlar sifatli va bir nuqtadan elektr manbayiga ulanadilar.


Aktiv kontsentratordar ancha murakkab vazifalarni bajaradilar, masalan, ular almashuv protokollarini va axborotni o'zgartirishni amalga oshiradilar.



### **Ko'priklar – Мост – Bridge**

*Ko'priklar, shlyuzlar* va *yo'naltirgichlar* turli xildagi tarmoqlardan bir butun tarmoq hosil qilish uchun ishlatiladi, ya'ni turli quyi bosqich almashish protokollari, xususan, turli formatdagi paketlar, turli kodlash usullari va turli tezlikdagi uzatishlar va xokazolardan bir butun tarmoq hosil qilinadi.

*Ko'priklar* – eng sodda qurilma bo'lib, ular yordamida turli axborot almashish standartli tarmoqlarni birlashtirishda, yoki bir tarmoqning bir necha qisimlarini birlashtirishda foydalilanildi.



### **Kommutatorlar – Коммутатор – Switch**

*Kommutatorlar (Shlyuzlar)* – bu qurilmalar protokollari katta farq qiluvchi, butunlay bir biridan farq qiluvchi tarmoqlarni birlashtirishda ishlatiladi, masalan, mahalliy, tarmoqlarni katta kompyuterlar bilan yoki global tarmoq bilan ulashda qo'llaniladi. Bu qurilmalar kam qo'llaniladigan va qimmat tarmoq qurilmalariga kiradi.

Agarda OSI modeliga murojat qilsak, shlyuzlar – OSI modelidagi ancha yuqori bosqichlar vazifalarini bajaradilar




**COMPEX SRX1216**

### **Mashrutlovchilar – Маршрутизатор – Router**

*Mashrutlovchilar* yoki *Yo'naltirgichlar* ko'priklarga qaraganda ancha murakkab vazifani bajaradilar. Ularning asosiy vazifasi – har bir paket uchun qulay uzatish yo'lini tanlashdir. Buning uchun tarmoqning eng ko'p yuklangan qisimlarini va buzilgan bo'laklarini aylanib o'tishi kerak. Ular odatda murakkab shoxlamalni (aralash topologiyali) tarmoqda ishlatiladi, bu xolda aloxida olingan abonentlar o'rtaida bir necha aloqa yo'li mavjud bo'lishi mumkin.



**Cisco 2500**



### **Topshiriqlar**

1. Bir kompyuterda ikkinchi kompyuterdagi ma'lumotlarni ko`chiring.
2. Global Aloqadan foydalanishni ko`rsating.
3. umail.uz saytida ro`yxatdan o'tishni ko`rsating.

4. ziyonet.uz saytida ro`yxatdan o`tishni ko`rsating.
5. mail.ru da o`z pochtangizni yarating.
6. ID.uz da ochilgan pochtangizdan do`stlaringizga o`zingizni olgan balig haqida xabar bering.
7. ID.uz orqali QaqDU da talabalardan do`stlariningizni ko`paytirng.

### **Nazorat savollari**

1. Kompyuter tarmog'i deb nimaga aytildi?
2. Kompyuter Tarmoqlari bir-biridan nima bilan farqlanadi?
3. Lokal kompyuter tarmog'i deganda nimani tushinasiz?
4. Shahar miqyosidagi kompyuter tarmog'i deganda nimani tushinasiz?
5. Keng zonali (global) kompyuter tarmog'i deganda nimani tushinasiz?  
Bu Tarmoqlarning topologiyalari qanday bo'ladi ?

## Amaliy mashg'ulot № 14.

**Mavzu:** Simsiz tarmoq texnologiyalari. Mobil intenet rivojlanish tendensiyasi..

**Ishning maqsadi:** Telekommunikatsiya va simsiz texnologiyalar WI-FI, Wi-MAX, EVO protokollar turlari.

### Topshiriq:

1. Simsiz aloqa tarmoqlari.
2. Wi-Fi tarmog'i texnologiyasi.
3. Wi-Fi tarmog'i texnologiyasining afzalliklari.
4. Wi-Fi tarmog'i texnologiyasining kamchiliklari.
5. Simsiz aloqa tizimlarinning ishlash prinsipi.
6. WiMAX texnologiyasi nima.
7. EVO tarmog'i ishlash prinsplari.
8. WAP va GPRS o'rtasidagi farq nima.
9. GPRS xizmati nima.
10. GPRS-telefon modem sifatida nimani anglatadi.
11. Android operatsion tizimi misolida GPRSni o'zingiz qanday o'rnatishingiz mumkin.

### Nazariy qism:

Wi-Fi (Wireless Fidelity) - ingliz tili so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, «simsizishonch» degan ma'noni anglatadi. Wi-Fi texnologiyasi hozirgi kunga kelib kompyuter olamida eng perspektiv kompyuter tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

Wi-Fi texnologiyasi, raqamli ma'lumotlarni radiokanallar orqali jo'natish turlaridan biridir. Ushbu texnologiya avvalo korporativ foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, kabelli tarmoqni o'rnini egallashi bashorat qilingandi. Bizga ma'lumki, kabelli tarmoqli kompyuter tarmog'ini yaratish uchun bir necha ming kabel tarmog'ini qo'lda o'rnatish hamda maxsus tarmoq topologiyasini yaratish talab qilinadi. Wi-Fi — radiochastotalarning qisqartirilgan boshqaruv chastotalarda ishlovchi simsiz, ma'lumot almashinish standartlashtirilgan texnologiyasidir.

Odatda Wi-Fi tarmog'i orqali WLAN (Wireless Local Area Network — Simsiz Lokal Tarmoq) tarmoqlari yaratiladi. Ushbu tarmoqda albatta yuqori radio to'lqinlar orqali aloqa tashkil qilinuvchi hamda ma'lumot almashinishini ko'rish mumkin bo'ladi. Bu tizim, kabelli tarmoqni kengayishi yoki unga alternativ sifatida bitta ofis, butun bir bino yoki bir maydon territoriyasida ishlatiladi.

Wi-Fi texnologiyasi minglab kabel tarmog'ini tushirish kabi mablag'li jarayonuchun mablag'laringizni tejash bilan birga, o'rnatishni oddiyligi va murakkab texnikjarayonlariga vaqtini iqtisod qilinishi bilan boshqa tarmoqlardan ustun turadi.

Simsiz tarmoqlar radiochastotalardan foydalanishiga sabab, radio to'lqinlar bino yoki umuman ofislardagi devor va shunga o'xshagan to'siqlardan ham o'tib ketaveradi va umuman hech narsa unga to'siq bo'la olmaydi(masofadan tashqari albatta!). Simsiz tarmoqlar o'z-o'zidan kabelli tarmoqlardan ishonchliroq hisoblanadi.

Ko'pchilik WLAN tarmoqlarini diapazoni yoki qoplash maydoni 160 metri

tashkil qiladi, bu albatta uning yo'lidagi to'siqlarning qanaqaligiga va qanchaligiga bog'liq bo'ladi. Ushbu tarmoqni ishlash tezligi kabelli tarmoq bilan tenglashishi va undan bir necha barobar yuqori ham bo'lishi mumkin. Bu albatta qaysi standartidan foydalanishga bo'qliq bo'ladi.

Xuddi oddiy tarmoqlar kabi WLAN tarmog'ida ham ma'lumotlarning o'tkazuvchanlik qobiliyati uning topologiyasidan, yuklanishidan, yuklanish nuqtasining masofasiga va shu kabi parametrлarga bog'liq bo'ladi. Ushbu tarmoqni eng qulay tomonlaridan birinchisi uni oson o'rnatilishida bo'lsa ikkinchisi esa Wi-Fi tarmog'ini kengaytirishdagi muammolarni umuman yo'qligi yoki boshqacha qilib aytganda ushbu tarmoq kengayishi oson bo'lgan eng sodda tarmoq hisoblanadi. Ushbu WLAN tarmo'gini kengaytirish uchun esa amaliy jihatdan yondashib qaraganda yangi ulanish nuqtalarini yaratishning o'zigma kifoya qiladi.

Wi-Fi modem routerini sotib olayotgan foydalanuvchi o'zini bemalol quyidagi imkoniyatlarga ega deb hisoblashi mumkin:

- ko'pfunksional multiservisli simsiz aloqa bilan birgalikda qo'shimcha qurilmalar bilan ishlovchi maxsus moslama;
- yuqori tezlikda uzoq masofalarga ma'lumot almashinish imkoniyatiga egaligi;
- tarmoqni kengaytirish uchun deyarli hech qanday ishni amalga oshirishnikeragi yo'qligi; (yangi foydalanuvchi tarmoqqa ulanish uchun tarmoqqa ulanish parolini bilishi buning uchun yetarli hisoblanadi);
- foydalanuvchi internet texnologiyalari hamda telekommunikatsiya sohalarining eng oxirgi yutuqlaridan foydalanishi.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, Wi-Fi tarmog'isiz bugungi kunni tasavvur qilish juda qiyin. Shuning uchun Wi-Fi tarmog'i texnologiyasi shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Quyida biz ushbu tarmoqning afzalliliklari va kamchiliklarini yoritib o'tamiz.

#### ***Wi-Fi tarmog'i texnologiyasining afzalliliklari:***

- ✓ Ulanishda tarmoq simlarining yo'qligi;
- ✓ Mobillilik va ma'lumotlarni yuqori darajada uzatish tezligiga egaligi;
- ✓ Ma'lumotlarni uzatishda har xil shovqinlarni mavjudmasligi;
- ✓ Wi-Fi tarmog'i inson hayoti uchun xavfsizligi;
- ✓ Wi-Fi tarmog'i sozlamalarini o'rnatish osonlogi;
- ✓ Wi-Fi moduli uydagi yoki ofisdagi barcha elektronika jihozlarni birlashtirishi.

#### ***Wi-Fi tarmog'i texnologiyasining kamchiliklari:***

- ✓ Ma'lumotlarni uzatishda atrof –muhitga kata ta'sir ko'rsatishi;
- ✓ Ma'lumotlarni uzatish masofasining cheklanganligi (Wi-Fi moduli ma'lumotlarni 500 metrgacha uzata oladi);
- ✓ Ma'lumotlarni uzatishda aloqa sifatini ta'minlash uchun har xil to'siq vadevorlarni halaqit berishi;
- ✓ Wi-Fi tarmog'ini himoyalash quyi darajada ekanligi;
- ✓ Yuqori darajadagi energiya istemoli (bu batareyalar bilan ishlaydigan qurmalariga tegishli);

✓ Uy yoki ofisda wi-fi tarmog'idan foydalanish ko'p sonli nuqtalardan iborat bo'lsa, ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish qiyinlashishi.

Umuman olganda wi-fi tarmog'ining bu kabi kamchiliklari bo'lishiga qaramay, bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bunga sabab, undan ma'lumotlarni uzatish va qabul qilishda, Wi-Fi tarmog'i texnologiyasidan foydalanish samarali natijalar berib kelmoqda.

Quyida biz, bugungu kunda Wi-Fi tarmog'i texnologiyasidan foydalanayotgan qurilmalarni ko'rastib o'tamiz.



### Wi-Fi tarmog'i texnologiyasi. Simsiz aloqa tarmoqlari

Wi-Fi - Wireless Fidelity - IEEE 802.11 simsiz aloqa standarti. Bino ichida 32 metrgacha bino tashqarisida 95 metrgacha bo'lgan masofada LHT PKlari tarmoq platralari, qurilmalari va ulanish nuqtalari o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi.

WiMAX - Worldwide Interoperability for Microwave Access – IEEE802.16 standarti. Bir va ko'p nuqtalar o'rtasida (mobil nuqtalar bilan birgalikda) ma'lumotlarni simsiz uzatish texnologiyasi. Ma'lumotlarni uzatish tezligi 70 Mbit/s gacha, masofa 70 km gacha (masofa uzayishi bilan tezlik pasayadi).



**Wi MAX.** Hozirgi kunda butun dunyoda simsiz aloqaga talab va undan foydalanish yuqori darajada o'smoqda. Simsiz aloqadan foydalanishda ma'lumot olishda (yoki qabul qilishda) simli aloqaga nisbatan qulayligi va yuqori darajadagi samaraligiga erishiladi. Wi-Fi tarmog'i asosan kichik hududdagi shu jumladan, bitta yoki ikkita lokal tarmoq (yoki 2 ta masofasi yuz metrdan oshmag'an korporativ tarmoqlarni simsiz aloqa orqali ularish)ni simsiz aloqa orqali birlashtirish maqsadida ishlataladi.



Lekin bu texnologiya bir qancha noqulayliklarga ega:

- simsiz aloqa (harakat) radiusining kichikligi
- global tarmoqqa ulanishda bir qator to'siqlarga duch kelishi va boshqalar.

Tarmoq ulanishi imkoniyatlari qanchalik yuqori bo'lishiga qaramasdan, quyidagi 3 ta asosiy tarmoqqa qo'yiladigan talablarni bajarish qiyin, bular: yuqori o'tkazuvchanlik qobiliyati, ishonchliligi va mobilligi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf qilish maqsadida simsiz aloqa tarmog'ining keyingi avlodni WiMax (Worldwide Interoperability for Microwave Access, IEEE 802.16 standarti asosida) ishlab chiqildi. WiMax texnologiyasini kengaytirish va rivojlanadirish maqsadida 1999-yilda WiMax-forumi ochildi.

Bu forumga: Nokia, Harris Corporation, Ensemble, Crosspan va Aperto kabi firmalar forum tarkibiga qo'shildi. 2005-yilning may oyiga qadar 230 dan ortiq dunyoning turli xil nuqtalaridan firma va kompaniyalar forum tarkibiga a'zo bo'ldi. Xuddi shu yilning jahon syezdida (World Summit on Information Society — WSIS) WiMax texnologiyasiga quyidagi talablar qo'yilib ular ustida ishlar boshlandi. WiMax texnologiyasiga quyidagi talablar qo'yildi:

1. Katta bo'limgan hududlarga shu qatori ajratilgan rayonlar, chetki (chetlashtirilgan) obyektlar WiMax texnologiyasi asosida kommunikatsiya va axborot xizmatlaridan foydalanishga ega bo'lishi, rivojlanayotgan davlatlardagi 1,5 million aholini shu hisob ichidan 100 ta odam ATS larga ulanmagan va yirik shaharlar bilan simli aloqa orqali axborot, ma'lumot almashish sharoitiga ega bo'limgan aholini kommunikatsiya va axborot xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish.

2. WiMax texnologiyasi orqali yer kurrasidagi aholining teng yarmini kommunikatsiya va axborot xizmatlaridan foydalanishga erishish. Shu qatori, 2005-yilning hisobiga ko'ra yer kurrasida internet tarmog'idan foydalanuvchilar soni 960 mln kishini tashkil etadi (yer kurrasidagi aholining 14,5% foizidir).

WiMax texnologiyasining asosiy maqsadlaridan biri universal simsiz aloqa orqali katta hududlarga ishonchli, sifatli kommunikatsiya va axborot xizmatlaridan foydalanish sharoitini yaratish bo'ldi. Bu orqali WiMax texnologiyasi quyidagi farqlarga ega bo'ldi:

1. Simli aloqa va yo'ldoshli aloqa tizimlaridagi servis-provayderlarga iqtisodiy tomondan effektivligini hal etish va bu orqali faqat potentsial abonentlarga erishibgina qolmay, balki bir joydan foydalanuvchi, (statsionar) abonentlar sonini

oshirish bilan birga ularga kommunikatsiya va axborot xizmatlaridan foydalanishni sifatli yo‘lga qo‘yish.

2. Simsiz aloqa tizimlari boshqa simli texnologiyalar bilan moslashuvchanligi. Bu orqali simsiz aloqa maydonini kengaytirish (masshtablashtirish) imkoniyati paydo bo‘ladi.

3. O‘rnatish, ulanish sodda arxitekturasi bu orqali unga ketadigan xarajatlarni kamaytirilishiga olib keladi.

4. Radioaloqa tizimlarida aloqa qamrab olish hududi uzoqligi muhim hisoblanadi. Hozirgi davrda yuqori maydonlarga mo‘ljallangan ko‘p simsiz aloqa tarmoqlarida obyekt va tarmoq oralig‘ida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinishga ega bo‘lishi kerak. WiMax texnologiyasida esa OFDM texnologiyasi qo‘llanganligi sababli to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinish yo‘q bo‘lganda ham abonent va tizim oralig‘ida aloqa uzilmaydi. Lekin bu orqali aloqa qamrab olish hududi bir necha kilometrga qisqaradi.

5. WiMax texnologiyasi tarkibida IP protokollari bo‘lganligi sababli lokal va korporativ tarmoqlarda qo‘llanilishi mumkin.


### **Simsiz aloqa standarti tizimlarining solishtirish jadvali. Ishlash prinsipi**

WiMax tizimi 2 ta asosiy qismdan tashkil topgan:

1. [WiMax baza stansiyasi](#), ko‘p qavatli binolar yuqorisiga o‘rnatiladi.
2. Qabul qiluvchi WiMax: antenna qabul qiluvchi bilan.

Baza stansiyasi va qabul qiluvchi abonent antennasi bog‘lanishi uchun o‘ta yuqori chastota diapazonidan(O‘YuCh) foydalaniladi. 2-11 GGts. Bu bog‘lanish agar ideal darajada bo‘lsa, unda ma’lumot uzatish tezligi 20 Mbit\s gacha bo‘ladi. Bu bog‘lanish abonent va server orasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinish talab etmaydi. Bu WiMax baza stansiyasining ishslash rejimi ko‘proq keng tarqalgan (Wi-Fi) simsiz aloqa tizimiga o‘xirish.

Shuni ta’kidlash joizki, WiMax texnologiyasi «oxirgi nuqta» («so‘nggi mil») uchun ishlatiladi, ya’ni mintaqaviy tarmoqlardagi foydalanuvchilarning so‘nggi foydalanuvchisigacha to‘liq sifatli xizmat ko‘rsatishdir. Qo‘shni stansiya bilan doimiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinishda O‘YuCh(10-66 GGts) dan foydalanilgan holda radioaloqa o‘rnatiladi. Bu usul ideal holatda ishlatilganda ma’lumot uzatish tezligi 120 M/bits yetkazish (Ideal holatda bu- Foydalanuvchi va server orasidagi o‘zaro to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinish) mumkin.



Agar bu ko‘rinishdagi bog‘lanish to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rinish bo‘lmasa, bu tizimning ishlashi, ma’lumot uzatish tezligi pasayishi mumkin. Lekin bu kamchilik bu turdagи bog‘lanishda asosiy kamchilik hisoblanmaydi (Bu bog‘lanishda asosan serverning joylashgan joyi va foydalanuvchilarning soniga va ularning qanday sifatli yoki sifatsiz texnologiya bilan ta’minlanganligiga bog‘liq).

Keyingi prinsiplardan biri — bu mobil aloqasi bazalashtirilgan prinsip, bu prinsip ham simsiz aloqaning estafetali rejimidagi ishlashini ta’minlaydi. Bu tarmoq asosan tog‘li massivlardagi joylarda simsiz aloqadan foydalanishga mo‘ljallangan.

2008 yil 17 oktabrda Toshkentdagи Interkontinental mehmonxonasida Super iMAX kompaniyasining EVO simsiz tarmog‘ining rasmiy ochilishi marosimiga bag‘ishlangan matbuot anjuman bo‘lib o‘tdi.

Matbuot anjumanida Super iMAX kompaniyasining rahbarlari hamda mazkur kompaniyaning ta’sischilaridan, investor va operator sifatida qatnashuvchi KT (Korea Telecom), investor sifatida qatnashuvchi Sumitomo Corporation kompaniyalari vakillari qatnashdilar.

Matbuot anjumanida EVO tarmog‘ining bugungi kundagi imkoniyatlari to‘g‘risida ma’lumot berish uchun kichik taqdimot o‘tkazildi.

EVO - mobil WiMAX ning O‘zbekistondagi birinchi tarmog‘i va mobil WiMAX «ikkinchi to‘lqini» (Wave-2) ning dunyoda birinchi operatorlaridan biri.

Taqdim etiladigan xizmatlar qayd etilgan hamda mobil WiMAX keng polosali simsiz ulanish texnologiyasiga asoslanadi. Kompaniya O‘zbekiston hududida tegishli telekommunikatsion xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha barcha zarur litsenziyalar va ruxsat beruvchi hujjalarga ega.

WiMAX Texnologiyasi har qanday, shu jumladan zinch shahar imoratlari sharoitlarida ishlashga, aloqa yuqori sifati va malumotlar uzatish katta tezligini ta’minlashga imkon beradi.

WiMAX Texnologiyasidan simsiz ulanish nuqtalarini tashkil qilib, kompaniyalar bo‘limlari o‘rtasida tarmoqni tashkil qilib va ilgari ananaviy texnologiyalar sababli imkon bo‘lmagan boshqa masalalarni hal etib “oxirgi nuqta” keng polosali ulanishlarni yaratish uchun foydalanish mumkin.

WiMAX texnologiyasi yuqori tezliklarda Internetga ulanishni, Wi-Fi tarmoqlariga qaraganda keng zonalarni qoplash va ishonchlilikni ta'minlashga imkon beradi.

Wi-Fi — bu kichik masofalarda simsiz aloqa texnologiyasi: [ofis binosida](#), kafeda. Wi-Fi xot-spotidan kompyutergacha masofa bir necha o'n metrdan oshmaydi.

WiMax texnologiyasi —bu butun shahar hududida tashkil qilinadigan keng polosali simsiz ulanish tarmog'i, resiverdan baza stantsiyasigacha masofa esa kilometrlar bilan o'lchanadi.

WiMax qayd etilgan, mobil va harakatdagi ulanish ssenariyalarini ta'minlaydi. Aloqa bilan ta'minlash masofasi-60 km, ulanish tezligi — 60 MbitG`s gacha.

EVO tarmog'i imkoniyatlarining taqdimotidan keyin, jurnalistlar savollar berishlari mumkin bo'ldi.

Misol uchun, bizning muxbirimizning EVO tarmog'iga ega bo'lgan xalqaro kanallarning umumiy sig'imi bugungi kunda qanday degan savoliga hozircha xalqaro kanalning sig'imi 20 MbitG's ni tashkil etishi, lekin zarur hollarda kanal kengaytirib borilishi hamda kanallar zahiralarini yaxshilab borish masalalari hal etilishini ta'kidlandi.Bundan tashqari, EVO tarmog'ini qurish va dastlabki rivojlantirishga investitsiyalar hajmi 10 mln. dollardan oshib ketganligi aytib o'tildi. Bundan keyin zarur bo'lgan vaziyatlarda butun O'zbekiston bo'y lab tarmoqni yanada rivojlantirish uchun mablag'lar kiritib borilishini aytdilar.Bugungi kunda EVO tarmog'i Toshkent shahrida, Toshkent, Andijon, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida ishlamoqda. 2008 yili Toshkentda mobil WiMAX (802.16e) tarmog'i ishga tushirildi. 2009 yilda deyarli butun respublika bo'y lab tarmoqni ancha kengaytirish rejalashtirilmoqda. Simli aloqa operatorlari va provayderlariga qaraganda kompaniyaning tariflari qanchalik raqobatbardosh degan savolga O'zbekiston katta hududni egallagan mamlakat va mamlakatda qator uzoq rayonlar mavjud bo'lib WiMax texnologiyasi asosida simsiz ulanishni ta'minlash masalasi juda dolzarb masala hisoblanadi deb javob berildi. Albatta, simsiz ulanish texnologiyasi va radiochastotali spektrdan [foydalanishni hisobga olsak](#), EVO tarmog'i xizmatlari simli operatorlar xizmatiga qaraganda bir oz qimmatroq, biroq simsiz ulanish texnologiyasi qator so'zsiz ustunliklarga ega. Kompaniya bozorlarda mana shu ustunliklardan foydalanadi. Hozircha kompaniya birinchi navbatda bozorning korporativ yo'nalishiga e'tibor qaratmoqda lekin 2008 yil oktabr oyidan boshlab jismoniy shaxslar uchun maxsus tariflar kiritildi. Bundan tashqari hozirgi vaqtda 31 oktyabrgacha yuridik shaxslar uchun ham, jismoniy shahslar uchun ham EVO tarmog'iga BEPUL ulanish aksiyasi o'tkazilmoqda.Matbuot anjumani o'tkazilayotgan zalning o'zidayoq test sinovi uchun stend tashkil etilib, unda har bir jurnalist EVO tarmog'ining imkoniyatlarini sinab ko'rishlari, shuningdek, ofislarda va kompaniya mijozlarining noutbuklarida o'rnatiladigan abonent uskunalari bilan tanishishlari mumkin bo'ldi.Masalan, noutbukga o'rnatilgan mobil WiMAX ning USB adapteri yordamida 1 MbitG`s gacha ma'lumot almashish tezligi bilan haqiqiy

vaqt rejimida yaxshi sifat bilan video va audiofayllarni yozib saqlab olish imkoniyati namoyish etildi.

Shuningdek, kompaniyaning ko‘ngil ochar <http://portal.evo.uz> portalni namoyish etildi, undan EVO tarmog‘i mijozlari turli xil video va audio fayllarni bepul saqlab olishlari hamda kompaniyaning o‘yin serverida Counter Strike mashhur kompyuter o‘yinini o‘ynashlari mumkin. Namoyish stendida noutbukka o‘rnatilgan veb-kamera yordamida yoki IP-protokol bo‘yicha ishlaydigan videotelefon orqali amalga oshirish mumkin bo‘lgan videoqo‘ng‘iroq xizmati namoyish etildi.

Aytgandek, Super iMAX kompaniyasi o‘zining 148XXXX raqamlar sig‘imiga ega va abonentlar nafaqat VPN tarmog‘i bo‘yicha ma'lumot uzatish va Internetga ega bo‘ladilar, shuningdek bevosita EVO tarmog‘idan IP-telefoniya xizmatiga ham ega bo‘ladilar. Jurnalistlar uchun yana bir aksiya - mobil WiMAX imkoniyatlarining namoyishi o‘tkazildi. EVO tarmog‘i Wave-2 zamonaviy texnologiyasidan foydalanib, mobil WiMAX xizmatlarini ko‘rsatadi. EVO tarmog‘i uchun mobil WiMAX yechimlarini Posdata kompaniyasi (Janubiy Koreya) taqdim etmoqda. Bu kompaniya 2008 [yildan baza stantsiyalarini](#), abonent uskunalarini va 2.3 GGts chastota diapazonida ishlashni ta'minlaydigan (802.16e standarti) tarmoqni boshqarish tizimini etkazib berishni amalga oshirayapti.

Jurnalistlarni EVO logotipli firma avtobuslarida sayr qilib kelishga va avtobusning harakatlanish vaqtida 8 Mbit\s gacha tezlikdagi Internet tarmog‘iga ulanishni sinab ko‘rishlari taklif qilindi. Bu imkoniyatlari EVO tarmog‘ining 3G uchinchi avlod aloqa xizmatini ko‘rsatuvchi uyali aloqa operatorlariga raqobat ko‘rsata olishini anglatadi. Kompaniyaning radio rejalashtirish mutaxassisi - Alimuxamedov Farrux, muxbirimizga EVO tarmog‘i antennadan 60 kilometr uzoqlikdagi masofada ishlaydi, shuning uchun hatto Toshkent oblastida ham ma'lumotlarni ishonchli uzatish va qabul qilish mumkinligini aytdi. Mobil WiMAX esa hozircha faqatgini Toshkent shahrining markaziy tumanlarida ishlarloqda. Biroq EVO tarmog‘i jadal rivojlanib boradi. Tahririyat nomidan Super iMAX kompaniyasini EVO tarmog‘ini tantanavor ravishda ishga tushirilishi bilan tabriklaymiz va biznesning omadli rivojlanishi hamda WiMAX standartidagi texnologiyalaridan foydalanuvchi abonentlar soni ko‘payishini tilaymiz.

### **Mobil Internet gprs. Telefonda GPRS ishlatish usullari.**

Ko‘pgina foydalanuvchilar GPRS nima ekanligini aniq bilishmaydi. Ushbu qisqartirish "ommaviy paket radio" degan ma’noni anglatadi. Bu ma'lumotlar uzatuvchi bunday qo’shimcha mobil aloqa texnologiyasi. Ma'lumotni yuborishning bu usuli bilan foydalanilgan radiokanal ma'lumotlar uzatish jarayonida bevosita bevosita amalga oshiriladi. Shu munosabat bilan uni qo'llashning yuqori samaradorligi ta'minlanadi. GPRS mavjudligi qurilmaga Internet tarmog‘iga ulanish va boshqa xizmatlarga ulanish uchun: GSM tarmoqlarida va tashqi tarmoqlar bilan boshqa qurilmalar bilan axborot almashish imkonini beradi: yangiliklar kanallari, internet sahifalari va boshqalar.

### **Nazorat savollari**

1. Simsiz aloqa tarmoqlari.

2. Wi-Fi tarmog'i texnologiyasi.
3. Wi-Fi tarmog'i texnologiyasining afzalliklari.
4. Wi-Fi tarmog'i texnologiyasining kamchiliklari.
5. Simsiz aloqa tizimlarining ishlash prinsipi.
6. WiMAX texnologiyasi nima.
7. EVO tarmog'i ishlash prinsiplari.
8. WAP va GPRS o'rtasidagi farq nima.
9. GPRS xizmati nima.
10. GPRS-telefon modem sifatida nimani anglatadi.

## Amaliy mashg'ulot № 15.

**Mavzu:** Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari.

**Ishning maqsadi:** Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari foydalanish va talabalarda ko'nikma hosil qilish.

### **Topshiriq:**

1. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tasnifi yoritib bering.
2. Axborot tizimlarini boshqaruv jarayoni ko'rinishi bo'yicha sinflanishi haqida tushunchangiz.
3. Axborot tizimlarini qo'llanish sohasi bo'yicha sinflanishini yoriting.
4. Axborot tizimlarini boshqaruv tizimining darajasi bo'yicha sinflanishi haqida tushunchangiz.
5. Axborot tizimlarini integratsvyalashuv darajasi bo'yicha sinflanishi qanday.
6. Avtomatlashtirish darajasi tarkibi nimalardan iborat.
7. Boshqaruv jarayoni turlari bo'yicha qanday tashkil topgan.
8. Mujassamlanish darajasi bo'yicha tarkibi nimalardan iborat.
9. Sifat darajasi bo'yicha nimalar kiradi.
10. axborot uzatish shakli qanday tartibda.
11. Integratsvyalashuv darajasiga ko'ra barcha axborot tizimlarini nechta sinfga ajratish mumkin.
12. Avtomatlashtirilgan ofis tizimi nimadan iborat.
13. OIS ning funksional tuzilishi nimalardan iborat.
14. Avtomatlashtirilgan ish joyi tushunchangiz.

### **Nazariy qism:**

#### **Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining tasnifi**

Tasnif variantlari	Tasnif belgilari
Avtomatlashtirish darajasi bo'yicha	Avtomalashtirilgan Avtomatik An'anaviy (avtomatlashtirilmagan)
Boshqaruv jarayoni turlari bo'yicha	Texnik (texnologik) jarayonlar ABT Tashkiliy boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlari
Qo'llanilish sohasi bo'yicha	Ishlab chiqarishning AAT Ijtimoiy soha AAT Boshqaruvning AAT
Faoliyat ko'rsatish sohasi bo'yicha	Sanoat Kishlok xo'jaligi Transport va boshqalar Ilmiy tadqiqotlarning AAT Loyihalashtirishning avtomatlashtirilgan tizimlari

Qo'llanilish doirasi bo'yicha	Ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning avtomatlashtirilgan tizimlari
	Avtomatlashtirilgan o'qitish tizimlari
	Tashkiliy-iqtisodiy boshqaruvning <u>axborot tizimlari</u>
Boshqaruv tizimi darajasi bo'yicha	Umum davlat boshqaruvining axborot tizimlari
	Tarmoqlararo boshqaruvning axborot tizimlari
	Hududiy boshqaruvning axborot tizimlari
Mujassamlanish darajasi bo'yicha	Korxona tashkilotlarning axborot tizimlari
	Masalalararo axborot tizimlari
	O'zaro bir-biri bilan bog'lik, masalalarni avtomatlashtirish (kenja tizim)
	O'zaro bir-biri bilan bog'liq kenja tizimlarni avtomatlashtirish (bloklar)
Sifat darajasi bo'yicha	Mujassamashgan tizimlar
	Kompleks tizimlar
	Axborot-qidiruv tizimi
	Axborot-ma'lumot beruvchi tizim
	Ma'lumotlarni qayta ishslash tizimi
	Axborot-maslahat beruvchi tizim
	Ekspert tizimi
	Qarorlar qabul qiluvchi tizim

### **Axborot tizimlarini boshqaruv jarayoni ko'rinishi bo'yicha sinflanishi**

Boshqaruv jarayoni ko'rinishiga ko'ra texnik (texnologik) jarayonlarni avtomatik boshqarish tizimlari (TJABT) va tashkiliy (yoki ma'muriy) boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari (TBAT) o'zaro farqlanadi. Dastlabkisi texnologik jarayonlarni keng ma'noda boshqarish-ga (raketa, stanok va hokazolarni boshqa-rish), ikkinchisi – ijtimoiy va iqtisodiy xususiyatga ega ob'ektlarni boshqarish uchun mo'ljallangan. Ularning asosiy farqi boshqarish ob'ektining mazmunida. Birinchi holda – bu turli xil mashina, asbob-uskuna, qurilmalar bo'lsa, ikkinchisida – eng avvalo odamlar, jamoa sanaladi.

Boshqa bir farqi – axborot uzatish shaklida. Birinchi tizimlarda axborot uzatishning asosiy shakllari bo'lib turli xil signallar (elektrik, optik, mexanik va hokazo) xizmat qiladi. Ikkinchi xil tizimlarda asosiy axborot uzatish shakli – hujjatdir.

So'nggi paytlarda TJABT va TBATning yagona integratsiyalash-gan boshqarish tizimiga qo'shilish tendensiyasi kuzatiladi. Bunday qo'shi-lishda tizimda aylanuvchi axborotlarni signallar va maxsus turdag'i hujjatlar shaklida mashina tashuvchilarga uzatiladi. Bu bilan TJABT va TBAT o'rtasidagi farqlar ma'lum darajada yo'qoladi.

### **Axborot tizimlarini qo'llanish sohasi bo'yicha sinflanishi**

Qo'llanish sohasi bo'yicha axborot tizimlari moddiy ishlab chiqarish, ijtimoiy va boshqaruv sohasiga ajraladi. Ishlab chiqarish sohasida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha axborot tizimlarini ajratib ko'rsatish mumkin: mashinasozlik majmui, yoqilg'i – energetika majmui, transport majmui, metallurgiya majmui, kimyo-o'rmon majmui, transport majmu, metallurgiya majmu.

Ijtimoiy sohada axborot tizimlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ajratiladi: sog'liqni saqlash, nafaqa va ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyat va aholi dam olishi, ijtimoiy va sotsial hayot, xizmatlar va faxrli maishiy hayoti, savdo va umumiyy ovqatlanish, kommunal xizmat, atrof-muhit muhofazasi.

Boshqaruv sohasida axborot tizimlari quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ajratiladi: deputatlar korpusi va ijroiya hokimiyyati, davlat boshqaruvi va statistika, tashqi iqtisodiy faoliyat, moliya organlari, bank tizimlari, huquqni muxrfaza etish organlari va hokazolarga xizmat ko'rsatish.

Faoliyat ko'rsatish sohasi bo'yicha axborot tizimlari quyidagi yo'nalishlarga ajratiladi: sanoat, transport, aloqa, qishloq xo'jaligi va xokazo.

Qo'llanish doirasi bo'yicha asosiy klassifikatsiyaviy (tasnifiy) belgi axborot tizimlari va texnologiyalarini qo'llash sohasi bilan aniqlanadi.

Mamlakat milliy iqtissodi ijtimoiy mahsulotni yaratish, iste'mol qilish yoki taqsimlashda ishtirok etuvchi iqtisodiy-tashkiliy ob'ektlarni (korxonalar, birlashmalar, konsernlar, va hokazolar) o'zida aks ettiradiki, ular ham o'z navbatida ishlab chiqarish va iqtisodiy-tashkiliy axborot tizimlariga bo'linadi.

Ishlab chiqarish tizimlarida mahsulot yaratish, loyihani ish-lab chiqish, ilmiy qoidalarni tayyorlash amalga oshiriladi. Ishlab chiqarish jarayonlarining me'yorida ishlashini boshqarish tizimi ta'minlaydi, unda ishlab chiqarish sohasida bevosita ishtirok etmaydigan mutaxassislar band. Ular faoliyatining sohasi – ishlab chiqarish jarayonlarini tashkillashtirish va boshqarish, ular talab etadigan zahiralarni ta'minlashdan iborat.

Ishlab chiqarish tizimlari sinfini mahsulotning turli hayo-tyi sikli bosqichlariga muvofiq holda kichik sinflarga bo'lish mumkin: ilmiy tadqiqot – loyihalash – ishlab chiqarish – sinovdan o'tkazish.

Ishlab chiqarish jarayonlari uchun axborot texnologiyalarini qo'llash tegishlicha mehnat vositalari, texnologik va ishlab chiqarish jarayonlari, ilmiy tadqiqotlar, loyiha ishlari va ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning kompleks avtomatlashtirish tizimlariga olib keladi.

Texnologik jarayonlarni kompleks avtomatlashtirishda axbo-rot texnologiyalarini qo'llash texnologik jarayonlarni avtomatlash-tirilgan boshqarish tizimi (TJ ABT), moslashgan ishlab chiqarish tizimlari (MIT ABT), transport-omborxona tizimlari (TOT ABT)-ning yaratilishiga olib keladi. Bunday tizimlarni yaratishdan maq-sad-milliy iqtisod tarmoqlarini yuqori ishchonchli mehnat vositalarini tadbiq etish hisobiga texnik qayta jihozlashni ta'minlash, ularni avtomatlashgan uchastka va texnologik jarayonlarga kompleks-lash, ishlab chiqarishga moslashuvchanlik, iqtisodiylik bag'ishlashdir.

Axborot texnologiyalarini ilmiy – tadqiqot loyiha tashki-lotlarida, konstruktorlik ishlarida, texnologik tayyorlashda qo'llash ushbu so-halarning avtomatlashgan tizimlari yaratilishiga olib keladi.

Kompleks ITAT va LAT ilmiy-tadqiqot institatlari va loyiha tashki-lotlarida fundamental tadqiqotlarni olib borish va texnika, texnologiya-larning yangi avlodlarini yaratishda foydalani-ladi. Bunday tizimlar tarkibiga sun'iy intellekt komponentlari (ekspert tizimlar, bilimlar bazasi, multimedia vositalari) va ishchi stansiyalari lokal tizimlari va tadqiqotchi hamda konstruk-torlarning avtomatlashtirilgan ish o'rinni (AIU) kiradi.

Axborot texnologiyalarini ilmiy-tadqiqotlar, loyiha-konstruktorlik ishlari va ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashdan asosiy maqsad «tadqiqot loyihalash – konstruktorlash – ishlab chiqarishga tayyorlash» hayotiy siklining barcha bosqichlarida mahsulot ishlanmalari va texnologiyasini o'tkazish sifati, foydalanish harakteristikasi, texnologiyasi, yangi mahsulot ilmiyligi jihatini oshirish, nomenklaturani kengaytirish, tajribaviy ishlab chiqarishni qisqartirishdan iborat.

Boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy tizimlarida ob'ekt sifatida iqtisodiyotni boshqarishning barcha bosqichlarida amalga oshirila-digan ishlab chiqarish, ijtimoiy-iqtisodiy funksional jarayonlar xizmat qiladi. Axborot tizimlari bosh-qarish xizmatlari xodimlarining ax-borot xizmat ko'rsatish tizimlari bo'lib, axborotni toplash, saqlash, uzatish va qayta ishslash bo'yicha texnologik vazifalarni bajaradi. U konkret iqtisodiy ob'ekt uchun qabul kilingan metodlar va tuzilmaviy boshqaruv faoliyati tomonidan belgilangan reglamentda shakllanadi va ishlaydi, uning oldida turgan maqsad va vazifalarni bajaradi.

Tashkiliy – iqtisodiy tizimlar halq xo'jaligida qabul qilgan boshqarish organlari tuzilmasiga muvofiq kichik sinflarga bo'linmasligi mumkin.

Tashkiliy-iqtisodiy tizimlarda barpo etilgan avtomatlashgan axborot vositalari axborotni qayta ishslash va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun mo'ljallangan axborot, iqtisodiy-matematik metodlar va modellar, texnik, dasturiy, texnologik vositalar va mutaxassislar yig'indisini o'zida aks ettiradi.

### **Axborot tizimlarini boshqaruv tizimining darajasi bo'yicha sinflanishi**

Boshqaruv tizimining darajasi bo'yicha umum davlat va tarmoq-lararo boshqarish organlari, tarmoq va hududiy boshqarish organlari, tashkilotlarining axborot tizimlariga ajraladi.

Tegishli organning avtomatlashtirish va ishslash maqsadlariga bog'liq holda umum davlat va tarmoqlararo axborot tizimlari nomla-nishda muayyan farqlarga ega.

Davlat va tarmoqlararo boshqarish organlariga axborotni qayta ishslash tizimlari, ma'lumotlar bazasi va banki, ekspert va axborot-izlash tizimlari kiradi, ular davlat xokimiyati organlari va boshqaruv, tarmoqlararo organlar ishini ta'minlaydi.

Tarmoqlararo avtomatlashgan axborot tizimlari milliy iqtisodni boshqarish organlarining (bank, moliya, statistika, ta'minot va boshqalar) ixtisoslashgan tizimidir. Ular o'z tarkibida qudratli hisoblash komplekslari, tarmoqlararo ko'p darajali avtomatlashgan axborot tizimlariga ega bo'lib, iqtisodiy va xo'jalik

bashoratlarini, davlat byudjetini ishlab chiqish, xo‘jalikning barcha bo‘g‘inlari faoliya-ti natijalarini nazorat qilish va tartibga solishni amalga oshiradi.

Boshqaruvning tarmoq tamoyilini amalga oshiruvchi organlar uchun axborot tizimlarini tuzilmalarining bo‘g‘inliligidan kelib chiqib ajratish mumkin: vazirlik (idora, konsern, assotsiatsiya, xolding) axborot tizimlari – birlashma – korxona.

Boshqaruvni tarmoq tamoyili bo‘yicha amalga oshiruvchi organlar uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash tarmoq axborot tizimlarini barpo etishga olib keladi, vazirliklar, banklar, idoralar, korporatsiya va hokazolarni ta‘minlovchi axborot, ma’lumotlar banki va bazasini qayta ishslash tizimini o‘zida namoyon etadi. Bu tizimlar SHK lokal hisoblash tarmoqlari bazasida yaratiladi. Tarmoq axborot tizimida axborotni to‘plash, uzatish, qayta ishslash va tahlil qilish amalga oshiriladi. Bu boshqarish apparatining qarorlarni qa-bul qilish va ularni idoralarga karashli korxona va birlashmalargacha yetkazishda majburiy ishtirokini ko‘zda tutadi.

Korxona (tashkilot, muassasa) tizimida axborot texnologiyalarini tadbiq etish korxonaning avtomatlashtirilgan boshqarish tizimini yaratishga olib keladi, u avtonom holda ham, ishlab chiqarish birlashmasi axborot tizimi tarkibida ham, tarmoq axborot tizimida ham ishslashga mo‘ljallangan.

Agar korxonaga ishlab chiqarish, sex, brigada kabilar majmuasini namoyon etuvchi tizim deb qaralsa, bu darajalarning har birida axborot texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Ularning har birida tegishlicha axborot tizimlari ham paydo bo‘ladi.

Bu pog‘onada quyi, asosiy element asosiy ish joylarida axborot texnologiyalaridan foydalanishda namoyon bo‘ladi. Bu holda «avtomatlashgan ish joyi» (AIJ) tushunchasidan foydalaniladi.

**Yirik korxonalar uchun axborot texnologiyalarini qo‘llash integratsiyalashgan axborot tizimlarini yaratish yo‘li bilan, quyidagi komponentlar tarkibida amalga oshiriladi:**

- korxonani boshqarishning avtomatlashtirilgan axborot tizimi (KBAAT);
- avtomatlashtirilgan loyihalash tizimi (ALT);
- ishlab chiqarishni texnologik tayyorlashning avtomatlashtirilgan tizimi (IChTTAT); Korxonaning integratsiyalashgan axborot tizimi korxona ichida ham, tashqi muhit bilan ham (axborot yetkazib beruvchilar, iste’molchilar, banklar, birjalar va boshqalar) keng axborot almashuvini ta‘minlaydi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini kichik va o‘rtta tashkilot-lar, hududiy boshqarish organlari, transport, qurilish, savdo va boshqa tashkilotlar faoliyatini avtomatlashtirish uchun qo‘llash «elektron kontoralar» (ofislar), ya’ni alohida avtomatlashtirilgan ishchi o‘rinlarini birlashtiruvchi taqsimlangan ma’lumotlar bazasi va lokal hisoblash tarmoqdari negizida axborot tizimlarini amalga oshiradi.

Axborot texnologiyalarini hududiy-ma’muriy boshqarish organlariga tadbiq etish hududiy axborot tizimlari (HAT) ga olib keladi. Ular mahalliy davlat organlari va boshqaruvning tahlil va boshqarish funksiyalarini ta‘minlash uchun yaratiladi.

Hududiy tizim faoliyati mintaqada boshqaruv ishini sifatli bajarishga, hisobotni shakllantirishga, davlat va mahalliy xo‘jalik organlariga tezkor ma’lumotlarni berishga qaratilgan.

**Boshqaruvning tuzilmaviy – hududiy organlariga muvofiq quyidagi tizimlar o‘zaro farqlanadi:**

- avtonom respublikalar, viloyatlarning axborot tizimlari;
- shahar xo‘jligini boshqarishning axborot tizimi;
- ma’muriy rayonning axborot tizimi.

**Axborot tizimlarini integratsvyalashuv darajasi bo‘yicha sinflanishi**

**Integratsvyalashuv darajasiga ko‘ra barcha axborot tizimlarini beshta sinfga ajratish mumkin:**

**1-sinf** – vazifali axborot tizimlaridan iborat bo‘lib, unda bir-biri bilan bog‘liq bo‘limgan vazifalar avtomatlashtiriladi. Odatda bunday tizimlar o‘zaro na ish, na axborot jihatidan bog‘liq bo‘ladi. Har bir vazifa uchun ma’lumotlar tashkil etiladi va yig‘iladi.

**2-sinf** – O‘zaro bog‘liq vazifalarni avtomatlashtirish bilan ajralib turadi. Ular ayrim tamoyillarga ko‘ra ajratilib kenja tizimlarda guruhlanadi. Kenja tizimlarning ish qobiliyatini ta’minlash uchun lokal ma’lumotlar bazasi yoki o‘zaro bog‘langan lokal fayllar tashkil etiladi.

**3-sinf** – yagona ma’lumotlar banki asosida kenja tizimlar o‘rtasida o‘zaro aloqani amalga oshirgan tizimlardan iborat. Ayni paytda kenja tizimlar yanada yirikroq konstruksiyaga (masalan, «hisobot», «tahlil», «boshqarish», «rejalashtirish» bloklari va hokazo) birlashadi. Birlashuv nomigagina amalga oshirilmagan. Tizim ichidagi integratsiyalashuv funksional va model darajasida amalga oshiriladi. Ayni paytda axborot maqsadi, modeli, mezon va cheklovlar, axborotni tashkil etish, axborot texnologiyasi har bir daraja, har bir blok doirasida o‘zaro bog‘liq bo‘ladi.

**4-sinf** – bloklarni yagona axborot banki va yagona axborot texnologiyasi bilan yagona tizimga qo‘sib yuborish orqali amalga oshiriladigan axborot tizimlaridir.

**5-sinf** – intefallahgan tizimlar. Ularga turli tip va maqsadli axborot tizimlari birlashib, ishlab chiqarish hamda boshqaruv kompleks tarzda avtomatlashtiriladi.

**Sifat darajasiga ko‘ra axborot tizimlari quyidagi sinflarga bo‘linadi:**

1. Axborot-qidiruv tizimi (AQT). EHMda yoki undan tashqarida sakdanishi mumkin bo‘lgan hujjatlar, ikkinchi darajali hujjatlar (masalan, referatlar), hujjatlar nomi yoki manzillarning to‘liq matmini qidirishni amalga oshiradi. EHMda u yoki bu hollarda qidiruv obrazi nomini olgan va qisqacha mazmuni bayon qilingan huj-jatlarning formallahgan bayoni saqlanadi.

2. O‘ziga kerakli mavzu-dagi hujjatni topishni istagan axborot iste’molchilarini tizimga so‘rov yuboradi. Qidiruv natijasiga ko‘ra, tasvir-anan hujjatlarning to‘liq matni yoki so‘ralgan harajatlarning to‘g‘ri-noto‘g‘ri, yetishmasligi, ishonchlilik darjasini haqida ma’lumot beriladi.

3. Axborot-ma’lumotnomasi tizimi (AMT) ko‘p jihatdan foydalanuvchilar so‘roviga binoan iqtisodiy, texnik yoki texnologik mazmundagi axborotni berish,

yig‘ish va saqlashga mo‘ljallangan. Aytish mumkinki, axborot-ma’lu-motnoma tizimi raqamli yoki matnli konkretlashtirilgan ma’lumotlar bilan ishslashga qaratilgan. So‘rov-ning turiga va shakliga ko‘ra natijani qanday taqdim etishni belgilaydi. So‘rov natijalari standart ma’lumotnoma shaklida berilishi mumkin yoki foydalanuvchining xohishiga ko‘ra uning so‘rovini qayta ishslash davomida ixtiyoriy ko‘rinishda loyihalashtirilishi mumkin.

4. Matnlarni qayta ishslash axborot tizimi (MQAT) bevosita foydalanuvchiga matnlarni (xat, maqola, referat, buyruq va hokazo) tahrir qilish, saqlash va ko‘paytirishga mo‘ljallangan.

5. Ma’lumotlarni qayta ishslash tizimi (MQIT) EHMDagi hisob-kitoblarning formallahgan algoritmlari bo‘yicha ma’lumotlarni hisoblashga mo‘ljallan-gan. Mazkur tizim ijodiy jarayonlarni emas, eski jarayonlarni (hisob, hisobot, muhandislik-texnik hisob-kitoblari va hokazo) avtomatlashtirishga yo‘naltirilgan.

6. Maslaxat beruvchi axborot tizimi (MBAT) avtomatlashtirilgan rejimda EHMDa ma’lum bir holatlarda tashkiliy yoki texnik mazmundagi qarorlarning ayrim variantlarini tuzib beradi. Bu tavsiyalar qaror qabul qiluvchi shaxs ixtiyoriga beriladi. Maslaxat beruvchi (kengashuvchi) axborot tizimi asosiga real haqiqatga, ya’ni ob’ektdagi yoki boshqaruv tizimidagi jarayonga o‘xshash turli xil matematik modellar joylashtiriladi.

7. Qarorlar qabul qilish tizimi (QQQT) shunisi bilan ajralib turadiki, EHMDa ishlab chikilgan qaror varianti bajarish uchun qabul qilinadi. Ayni paytda ishlab chiqarish tizimi (texnologik jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgai tizimi dispatcher boshqaruvi tizimi) EHM qabul kilgan qarorlar ijrosini tegishli ijo mexanizmlari orqali avtomatik ravishda amalga oshiradi.

8. Ekspert tizimlari – ET (intellektual komponentli axborot tizimi) EHMDa ma’lumotlar bazasidan tashqari yana ikkita – bilim-lar va maqsadlar bazasi mavjudligi bilan ajralib turadi. Ma’lu-motlar bazalari (MB) boshqaruv tizimi va ob’ektining miqdoriy formal tavsifiga ega; bilimlar bazasi (BB) tashqi muhit haqidagi noformal semantik tasavvurlar, ob’ektlarning ayrim sifat tavsifini, ular orasidagi munosabatlari, mumkin bo‘lgan harakatlar, holatlar, abstraksiyalar, streotipler bayonini saqlaydi. Maqsadlar bazasi modellashtiriladigan ob’ektlar uchun xos bo‘lgan o‘zaro bog‘liq maqsadlar, kenja maqsadlar, ularga yetishish uslublari va vositalari tuttsheidagi tasavvurga ega. Bunday tizimlar ijodiy, ilmiyatadqiqot, loyihalashtirish, boshqarish jarayonlarida juda dolzarb.


Ekspert tizimlari inson faoliyatining aniq turlari bo‘yicha mutaxassis-lar tajribasi va bilimini to‘plash, boyitish, rivojlantirish imkonini beradi.

### **Avtomatlashtirilgan ofis tizimi**


Avtomatlashtirilgan ofis tizimi (Office Information Systems – OIS) firma boshqaruvining barcha darajadagi menejerlari uchun faqat xodimlar ichki firma aloqasini qo‘llab-quvvatlash uchungina emas, balki ularga tashqi muhit bilan yangi kommunikatsiya vositalarini taqdim etishi jixatdan ham diqqatni o‘ziga tortadi. Avtomatlashtirilgan ofisning axborot texnologiyasi kommunikatsiya jarayonlarini ham tashkilot ichida, ham tashqi muhit bilan axborot uzatish va u bilan ishslashning

kompyuter tarmoqlari va zamonaviy vositalar negizida tashkil etish va qo'llab quvvatlashdir. Hozirgi paytda ofisni avtomatlashtirish texnologiyasini ta'minlovchi kompyuter va nokompyuter texnik vositalar uchun bir necha unlab dasturiy mahsulotlar ma'lum: matnli protsessor, jadvalli protsessor, elektron pochta, elektron kalendar, audiopochta, kompyuterli va telekonferensiyalar, shuningdek boshqaruv faoliyatining maxsus dasturlari kiradi.

### OIS ning funksional tuzilishi quyidagicha bo'ldi:



### OIS ning quyi tizimlari quyidagicha bo'ldi:




Shunday kilib OIS – bu korxonani zamonaviy kompyuter tarmoklari, axborotlarni uzatish va axborotlar bilan ishlash kommunikatsiya jarayonlarini ichki va tashqi muhitlar uchun tashkillashtirish va uni qo'llab-quvvatlash tizimidir.

Avvaldan ofisni avtomatlashtirish texnologiyasi dastlab ishlab chiqarishda, sung ofisda paydo bo'lgan. Ofisni avtomatlashtirish texnologiyasi, ananaviy texnologiyani almashtirish emas, balki uni takomillashtirish bilan harakterlanadi. Ofisni avtomatlashtirish axborot texnologiyasi - bu kompyuter tarmoklari va boshqa

zamonaviy axborotlarni qayta ishslash va uzatish vositalari yordamida ichki va tashki muhit orasida kommunikatsiya jarayonlarini tashkil etish texnologiyasidir

Bu texnologiya asosan Boshqaruvchilar, mutaxassislar va kotiblar orasidagi alokani avtomatlashtirish va muammolarni uzaro xal etish uchun muljallangan.



6.1-rasm. Ofisni avtomatlashtirish axborot texnologiyalari asosiy komponentlari.


Avtomatlashtirilgan ofisning axborot texnologiyasi - axborot bilan ishslash va uni uzatishning kompyuterlar tarmogi va boshka zamonaviy vositalari bazasida ham tashkilot ichida, ham undan tashkarida kommunikatsiya jarayonlarini tashkil etish va saklab turishdan iborat. Ofisning avtomatlashtirilgan texnologiyalaridan Boshqaruvchilar, mutaxassislar, kotibalar va idora xizmatchilari foydalanadilar, ular ayniksa muammolarni gurux bulib xal qilishda juda kulaydir

### **Avtomatlashtirilgan ish joyi**

Foydalanuvchi-iqtisodchi va Foydalanuvchi-boshqaruvchi alohida axborot tizim-lari bilan birga, ularning bir kompleksiga birlashgan majmuini ham ishlatishlari mumkin. Qaror qabul qiluvchi shaxs bo‘lgan boshqaruv xodimining maqsadlarini amalga oshirilishiga yordam beruvchi ta’minlovchi va funksional texnologiyalar kompleksi AIJ (avtomatlashtirilgan ish joyi)lar asosida amalga oshiriladi. AIJning maqsadi qaror qabul qiluvchi shaxsning oldiga quyilgan maqsadlarga erishish uchun kerakli qarorlarni tayyorlash va qabul qilinishini axborotiy ta’minlashdir.

Shaxsiy EXMlar paydo bo‘lishi bilan birga, ularni bevosita xodimlarning ish joyiga o‘rnatish va dasturchi bo‘lmagan foydalanuvchilar uchun mo‘ljallangan yangi instrumental vositalar bilan jihozlash imkoniyatlari yuzaga keldi. Avtomatlashtirilgan ish joyi – bu aniq predmet sohasidagi boshqaruv funksiyalarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan, bevosita ish joyida o‘rnatilgan va axborotiy, dasturiy va texnikaviy zaxiralalar bilan ta’minlangan personal kompyuterdir. AIJ butun funksional axborot texnologiyasini yoki uning bir qismini o‘z ichiga oladi. U yoki bu AIJga funksional axborot tizimining qaysi qismi mos kelishi ob’ektni boshqaruv strukturasida maqsadlarni taqsimlash (dekompozitsiya) bo‘yicha belgilanadi.

**AIJ dasturiy ta’minotini quyidagicha tasniflash mumkin:**



### Nazorat savollari

1. Axborot tizimlarini boshqaruv jarayoni ko‘rinishi bo‘yicha sinflanishi.
2. Axborot tizimlarini qo‘llanish sohasi bo‘yicha sinflanishi.
3. Axborot tizimlarini boshqaruv tizimining darajasi bo‘yicha sinflanishi.
4. Boshqaruvning tuzilmaviy – hududiy organlariga muvofiq quyidagi tizimlar o‘zaro farqlanishi.
5. Axborot tizimlarini integratsvyalashuv darajasi bo‘yicha sinflanishi  
Integratsvyalashuv darajasiga ko‘ra barcha axborot tizimlarini sinfga ajratish.
6. Sifat darajasiga ko‘ra axborot tizimlari qanday sinflarga bo‘linadi.
7. Avtomatlashtirilgan ofis tizimi.
8. OIS ning funksional tuzilishi qanday bso‘ladi

## **Asosiy adabiyotlar**

1. Akayev A.A, Kenjabayev A. T, Ilxamova Y.O.S, Jumaniyozova M.YU, “Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari” Darslik.T-“O’bekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti”. 2019-448 ,bet.

2. Kenneth C. Loudon. Jane P.London Management Information Systems. New York. 2019. Page 669.

3. Informatsionniye texnologii v ekonomike i upravlenii uchebnik / pod red. Prof. V.V. Trofimova 3-ye izd, pererab. i dop-M Yurayt, 2019-552 str.

4. Avtimatizirovanniye informatsionniye texnologii v ekonomike uchebnik/Pod. Red. Prf. G.A. Titorenko 2-ye izd. Pererab i dop. M: Yuniti, 2019-483 str.

## **Qo’shimcha adabiyotlar**

5. Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz.-Toshkent. “O’zbekiston”. 2017-488 b.

6. Azizova M.I., Djumaniyazova M.Y. “Iqtisodiyoda axborot komplekslari va texnologiyalari” fani bo‘yicha o‘quv uslubiy majmua-Toshkent: TMI.2020-582 bet.

7. Abdullayeva.B.S, Suropov B.M. Iqtisodiyotda axborot-kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar. Iqtisodiyot va Menejment ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun o’quv qo’llanma. - Toshkent. -2020. -194 b.

8. Z.T.Raximov, A.A.Xo’jayev, Ergashev N.G’. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. Ekologiya va atrof-mahit muhofazasi (sanoat korxonalari) yo’nalishi talabalari uchun o’quv qo’llanma. - Toshkent. -2020. -215 b.

9. Shukurov A.U. “Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari”. O’quv qo’llanma. – Qarshi «Intellekt» Nashriyoti. 2021.-156 b.

10. Shukurov A.U. “Iqtisodiyotda axborot komplekslari va texnologiyalari 2-qismi”. Moliya yo’nalishi talabalari uchun o’quv qo’llanma. – Qarshi «Intellekt» Nashriyoti. 2021. - 200 b.

## **Axborot manbaalari**

11. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) – O’zbekiston Respublikasi xukumat portalı.

12. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) – O’zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

13. [www.tradingeconomics.com](http://www.tradingeconomics.com)-ekonomicheskiye pokazateli

14. [www.catback.ru](http://www.catback.ru)- Iqtisodga oid o‘quv materiallari va ilmiy журнallar.